

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT MADANIYAT INSTITUTI
“KASBIY-PEDAGOGIK TA'LIM” FAKULTETI
“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI**

**“SHAXSNI AXBOROT OLIH MADANIYATI”
TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK TALQINI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Kasbiy-pedagogik ta'lim” fakulteti

bitiruvchisi D.SHUKUROVA

Ilmiy rahbar: p.f.n.,dotsent Z.H.Qosimova

Kafedra mudiri: p.f.n.,dotsent Z.H.Qosimova

Mazkur bitiruv malakaviy ishi kafedraning 2012-yil “23” 05 dagi 10-sonli yig'ilishida
muhokamadan o'tib himoyaga tavsiya etilgan

TOSHKENT- 2012

MAVZU: "SHAXSNI AXBOROT OLISH MADANIYATI"
TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK TALQINI

Reja:

KIRISH

**I BOB. "AXBOROT OLISH MADANIYATI" TUSHUNCHASINI
PEDAGOGIK TALQIN QISMINING NAZARIY MANBALARI**

- 1.1. Axborot va uni jamiyat hayotida tutgan o'рни*
- 1.2. Bugungi globallashuv sharoitida axborotning shakllari va xususiyatlari tavsifi*

**II BOB. SHAXSNI AXBOROT OLISH JARAYONINIG METODIK
ASOSLARI**

- 2.1. Shaxsni axborot tahdidlaridan himoyalashning pedagogik shart-sharoitlari*
- 2.2. Shaxs ruhiyatiga axborot ta'sirining ijobiy va salbiy jihatlari tahlili*
- 2.3. Shaxsda axborot olish madaniyatini shakllantirish usullari va vositalari*

XULOSA

ADABIYOTLAR RO'YXATI

ILOVALAR

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan beri inson axborot olish, tarqatish va undan foydalanishga ehtiyoj sezib keladi. Albatta, qadimda bu jarayon juda sodda ko'rinishga ega edi. Dunyo taraqqiy etgan sari u murakkablashib, axborotning jamiyatdagi o'rni yanada oshdi. Hatto, davrimiz ham "Axborot texnologiyalari asri" - deb nom olgani bejiz emas.

Bugungi kunda mamlakatimizda axborot sohasida bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "...fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi hamda erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu yurtimizda demokratik jamiyat asoslarini barpo qilishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'lsa, tamal toshi hisoblanadi."¹

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi vaqt va masofani qisqartirib, jahon sivilizatsiyasi bilimlariga keng yo'l ochib bermoqda. Bir vaqtlar fan, madaniyat, ta'lim va biznes sohasi uchun ma'lum hududda joylashgan kutubxonalardagi resurslardan foydalanilgan bo'lsa, bugungi kunda ular foydalanishi mumkin bo'lgan resurslar hajmiga Internet tarmog'idagi barcha resurslarni ham kiritish mumkin bo'ladi. Jamiyatda paydo bo'layotgan axborot resurslari hajmining jadal ortib borishi axborot bo'ronini vujudga keltirmoqda. Bu resurslardagi axborotlarning barchasi ham ishonchli, aniq faktlarga asoslangan, jamiyat rivoji uchun xizmat qiladigan axborotlar degan fikrdan yiroqmiz. Axborot olish va tarqatish bir vaqtning o'zida axborot xurujlarini keltirib chiqarmoqda. Bu haqda prezidentimiz ham quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan:

"Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyasiz bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashtirish shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin

¹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: "O'zbekiston", 2005. –B.61

zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.”² Aynan shuning uchun ham jamiyatda hosil bo'layotgan axborot bo'ronidan jamiyat a'zolarini, ayniqsa, jamiyatning kelajagi bo'lgan yoshlarni himoya qilish uchun ularda axborot olish madaniyatini shakllantirish hozirgi kundagi o'ta dolzarb muammo sanaladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shaxsda axborot olish madaniyatini shakllantirish muammosi bir qator fan mutaxassisleri tomonidan hozirgi kundagi dolzarb muammo ekanligi e'tirof etilmoqda (psixolog, pedagog, sotsiolog). Keyingi yillarda axborotlarni, xususan internet tarmog'idagi axborotlarni saralamasdan to'g'ridan- to'g'ri qabul qilish odatiy holga aylanmoqda. Bu esa ko'pchilik yoshlarda hali infoetikaning to'liq shakllanmaganligidan dalolat beradi. Bu muammo yuzasidan yurtboshimiz I.A.Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” va “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli asarlarida o'z fikrlarini ifoda etgan. Shu bilan bir qatorda M.Quronov, M.Bekmurodov, Z.Qosimova, H.Do'stmuhamedov, M.Mo'minov, A.Rasulov, Klod Shenon, Norbert Viner, A.Layderman, S.Lev, V.Nalimov, Z.M.Melchenko, A.Zinoyev, A.Parshev, I.G.Zaharova, N.I.Gendina kabi olimlar ham atroflicha o'rganib chiqqanlar.

Ishning maqsadi. O'quvchi, talabalar ongida axborot olish madaniyatini shakllantirish va yoshlarni turli xil axborot xurujlaridan himoyalash.

Ishning vazifalari:

- shaxsda axborot olish jarayonidagi ijobiy va salbiy jihatlarni o'rganish;
- o'rganib chiqilgan salbiy jihatlarga qarshi pedagogik chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- shaxsda axborot olish madaniyati tushunchasining pedagogik jihatdan tadqiq etish;
- axborotning turlari va shakllarini tavsiflab o'rganish;

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat” 2008. -B.115

- shaxsda axborot olish madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik jarayonning mazmuni, shakli, vosita va metodlari ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. XTB tasarrufidagi profelli mehnat ta'limiga ixtisoslashtirilgan 190-sonli davlat umumta'lim maktabi, Mirzo Ulug'bek nomidagi Informatika kolleji va Toshkent viloyat Pedagogika kollejida tahsil oluvchi 40 nafar o'quvchi tadqiqot ob'yekti hisoblanadi. Qo'llanilgan metodlar tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari.

Psixologik test, suhbat va kuzatuv metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik manbalari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining 4 aprel 2011 yilda ma'qullangan "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi qarori, 1997 yil avgust oyida tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi shaxsda axborot olish madaniyati tushunchasining pedagogik jihatdan tadqiq etilganligi, axborotning turlari va shakllari tavsiflanib o'rganilganligi hamda bu borada pedagogik jarayonning mazmuni, shakli, vosita va metodlari ishlab chiqarilganligida namoyon bo'ladi.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki, shaxsda axborot olish madaniyatini shakllantirish va yoshlarni turli xil axborot xurujlaridan himoyalash maqsadida mahsus kompyuter va telefon dasturlaridan foydalanishni kengroq yo'lga qo'yilishi, ishlab chiqilgan metodlarni pedagogik jarayon bilan uyg'unlashtirilishi hamda o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan maktab va kollej o'quvchilari foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi:

Bitiruv malakaviy ishi: kirish, 2 bob, 5 band, xulosa, tavsiyalar, 4 ilova, glossariy, adabiyotlar ro'yxati va mundarijadan tashkil topgan. Bitiruv malakaviy ishining asosiy mazmuni 65 bet hajmda. Umumiy hajmi 90 bet.

I BOB. "AXBOROT OLISH MADANIYATI" TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Axborot va uning jamiyatda tutgan o'рни

Biz uchinchi ming yillikka qadam qo'ydik. XXI asrni o'z navbatida axborot asri desak, adashmaymiz. Bunda axborotsiz ishlab chiqarish rivojlanishini tasavvur etib bo'lmaydi. Hozirda ommabop texnik vositalardan unumli foydalanish fan, ishlab chiqarish, iqtisodiyot va hokazo barcha sohalarda juda muhimdir.

Bilim axborotlar majmuining idrok qilinishidir. Axborot esa ma'lumot berish, tushuntirish, izohdir. Biz atrofga qarasak, ko'rish sezgisi, biron narsa eshitsak, eshitish sezgisi orqali axborot olamiz. Biror narsa so'zlasak yoki ko'rsatsak, axborot beramiz. Demak, qiladigan ishimiz, vazifamiz, asosan, axborot olish, yig'ish, qayta ishlash va uzatishdan iborat ekan. Bularni barchasini umumlashtirgan holda informasiya almashish jarayoni desak adashmaymiz.

"Informasiya" so'zi turli tillarda ishlatilib, ma'nosi turlicha talqin qilinsada ularning asosida lotincha informatio so'zi yotadi. U "ma'lumot", "tushuntirish", "tavsiflash" degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilida informasiya so'zi axborot deb tushuniladi. IX-X asrlarda Farobiy tahallusi bilan ijod etgan yurtdoshimiz Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarqon bilish jarayonini ikki bosqich- aqliy bilish va hissiy bilishdan iborat bo'lib, ular o'zaro bog'liq, lekin biri boshqasiz vujudga kelmasligini alohida ta'kidlaydi. Bilishning mazkur bosqichlari axborotsiz shakllanmaydi va demak, axborot bilishning asosini tashkil etuvchi element hisoblanadi.

Farobiy "Ilm va fanning fazilatlarini" risolasida tabiatni bilish jarayonini cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababni bilishdan oqibat bilishga, sifatlardan mohiyatga qarab borishini va buning asosida, ilmning borgan sari ortib, chuqurlashib borishini ta'kidlaydi. Allomaning aytishicha, odamning iptidosida

avvalo "oziqlanish talabi" paydo bo'lib, unga ko'ra odam ovqatlanadi. Shundan so'ngi talablar "tashqi talablar" bo'lib, ular bevosita tashqi ta'sir natijasida sezgi a'zolari orqali vujudga keladi. Mazkur "tashqi talablar" 5 turlidir: teri-badan sezgisi; ta'm bilish sezgisi; hid bilish sezgisi; eshitish sezgisi; ko'rish sezgisi.

Axborot tushunchasi. Axborot turli sohalarda turlicha tushunib kelinadi. Masalan, dehqon uchun axborot- ertangi ob-havo, yerning ozuqa bilan to'yinganligi yoki yetishtirilgan mahsulotning bozordagi narhi; tibbiyot hodimlari uchun- bemorning kasallik tashxisi, dori-darmonlar; muhandislar uchun- texnika va texnologiyalar; o'quvchi uchun- fanlardan olayotgan ma'lumotlari. Boshqa sohalarda ham o'z soharlari bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni axborot sifatida qabul qiladilar. Demak, inson doimo axborot bilan ish ko'rib kelgan.

Axborot nazariyasi asoschilaridan biri amerikalik Klod Shenon axborotni narsa haqidagi bilimlarimizdagi noaniqlikni bartaraf etilishi kabi e'tirof etadi. Kibernetika fanining asoschisi Norbert Viner axborotni bizni va sezgilarimizni tashqi olamga moslashuvimizdagi mazmunni ifodalash³, - deb qaraydi.

Axborotga olimlar tomonidan yuqoridagi kabi ta'rif berishga urinishlar ko'p bo'lgan. Lekin, axborot tushunchasiga har tomonlama ilmiy asoslangan ta'rif berish mumkin emas, chunki u juda ko'p ma'nolarni o'z ichiga oladi. Axborot haqidagi tushunchaga ega bo'lish uchun hayotingizdagi bir misolni esga olaylik. Go'daklik vaqtingizda "muzqaymoq" so'zini esga olaylik. Go'daklik vaqtingizda **muzqaymoq** so'zi sizga faqatgina "**mazali shirinlik**" ma'nosini anglatardi. Uni boshqa shirinliklar ichidan nomi, ko'rinishi, ta'mi, hidi yoki sovuqligidan ajratib olardingiz. Maktab yoshingizda **muzqaymoq** so'zi "shakar, qaymoq, kakao yoki kofe, temperatura, tomoq og'rig'i, angina, vrach, LOR, ishlab chiqaruvchi davlatlar" kabi o'zaro bog'langan modda va tushunchalar hamda muzqaymoqni tayyorlash usullari bilan bog'liq ma'lumotlar bilan to'ldi. Keyinchalik esa "**muzqaymoq**" malekulalardan iboratligi haqida ma'lumot oldingiz. Lekin bu hali muzqaymoq haqidagi to'liq ma'lumot emasligini, vaqti kelib bu so'z yana boshqa

¹ Ayupov.L. Kibernetik axborot ko'rsatkichlar. T.: "Fan", 1973. – B.85

ma'lumotlar bilan to'lishini tushunish qiyin emas. Demak, inson yillar davomida hayotdan ma'lumotlar olar ekan birini ikkinchisi bilan bog'lab to'ldirib boradi.


Yuqoridagi misol va alloma **Farobiy** fikrlaridan kelib chiqib axborotni qanday tushunish mumkin degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

***AXBOROT** deganda biz barcha sezgi a'zolarimiz orqali borliqning ongimizdagi aksini yoki ta'sirini, bog'liqlik darajasini tushunamiz.*

Demak, axborot borliqdagi narsa yoki jarayonlarning holatlari, xossalari va boshqa xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarning turli vositar va sezgi a'zolarimiz orqali bizga yetib kelishi va ongimizga ta'siri hamda bu ma'lumotlarning ongimizda boshqa ma'lumotlar bilan bog'lanishi ekan. Demak, **INSON** borliqning bir qismi bo'lgani uchun, u o'zi haqida ham (og'riq, isib ketish, charchash va hokazo) ma'lumot oladi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, hozirgacha yig'gan barcha ma'lumotlarimiz **axborot** bo'lib, axborotlar bog'langach esa **bilimni** tashkil etadi.

Mutaxassislarining fikricha, hozirda axborot iqtisodiyotning eng serdaromad manbaiga aylanib bormoqda. AQSh Strategik tadqiqotlar institutining ma'lumotlariga ko'ra, axborot mahsulotiga sarflangan har bir dollar, yoqilg'i-energetika sohasiga sarmoya qilingan 1 dollardan ko'ra bir necha barobar ko'p foyda berar ekan. Bu faqat uning iqtisodiy jihatini, uning siyosiy jihatini esa o'z shaxsiy manfaatlariga o'ta arzon, o'ta qulay yo'llar bilan erishish sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda axborot omili ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan ayrim kuchlar manfaatiga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham yangi mustaqil davlatlarning milliy xavfsizligini ta'minlashda siyosiy, iqtisodiy, harbiy omillar bilan bir qatorda uning axborot jihatlari borgan sari dolzarblashmoqda.²

² Mo'minov.A.N. Axborotlashtirish va hayot. T.: "Fan", 1992. –B.714



Ayni paytda mutaxassislar har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan birga mudofaa qudrati ham axborot tizimi va texnologiyalariga bog'liqligini ta'kidlashmoqda. Shu o'rinda jamiyat hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirish, elektron kommunikatsiyalar, elektron ko'rinishdagi ma'lumotlar bazasi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ijobiy natijalar bilan bir qatorda, axborot tizimlariga buzg'unchilik maqsadida ta'sir etishni ko'zda tutuvchi yangi "axborot quroli"ning ta'siri kuchayishiga olib kelayotganini aytib o'tish joiz. Bu esa o'z navbatida, mamlakatimizning axborot resurslari va telekommunikatsiya tarmoqlarini noqonuniy maqsadlarda ishlatishga qarshi himoya choralarini ko'rish va ularning benuqson faoliyatini ta'minlashga da'vat etmoqda. Axborot globallasuvi va shaxs ma'naviyati, har qanday axborot oqimining shaxs ma'naviyatiga ta'siri xususida so'z yuritganimizda avvalo bu masala zahirida jamiyatimizning, davlatimizning milliy xavfsizligi yotganini nazarda tutishimiz lozim. Zero bu mavzuda so'z yuritar ekanmiz avvalo ikki masala mavzuning dolzarb nuqtasiga aylanadi:

Birinchisi - axborot oqimi-mafkuraviy tahdid;

Ikkinchisi - shaxs ma'naviyati, ya'ni turli xildagi axborotlarga nisbatan shaxsda shakllangan immunitet masalalaridir.

Gap shundaki, axborot oqimi o'z mohiyatiga ko'ra ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Uning qanchalik shaxsga ta'sir qilishi uning oldiga qo'yilgan maqsadi sari puxta yo'naltirilganligiga bog'liq. Tabiiyki, axborot oqimining salbiy ta'siri esa ularda shakllangan mafkuraviy himoya tizimining mukammalligi omiliga bog'liq. O'tish davrida axborot mafkuraviy idrok etish bilan bog'liq vaziyatning murakkabligi, ya'ni davlat, jamiyat va shaxsda mafkuraviy raqobat borasida

yetarlicha demokratik tajriba yo'qligida hamdir. Ommaviy axborot vositalari tinglovchilarining ko'pchiligi siyosiy mavzudagi har qanday axborotni rasmiy axborot sifatida qabul qiladi. Axborotlar xarakteri va tartibi siyosiy osoyishtalik va barqarorlikning o'ziga xos barometri bo'lib xizmat qiladi. Agar fikrlar xilma-xilligi holati namoyon bo'lsa, beqarorlik ko'rsatkichi, siyosiy munosabatlar tizimida muammoli vaziyat yetilib kelayotganining o'ziga xos alomati sifatida talqin qilinadi.

Ikkinchi masalada avvalo, shaxsning mafkuraviy immuniteti bugungi kunda qanday shakllangan degan savol paydo bo'ladi. Masalani inson omili nuqtai nazaridan o'rganadigan bo'lsak, mafkuraviy immunitet - har qanday axborot ta'siriga tushib qolmaslik, avvalo, o'sha inson ongu-tafakkuri, idroki nechog'lik o'tkirligiga, chuqur mushohada qilish qobiliyatiga bog'liq. To'g'ri, avvalo hamma ham bunday qobiliyatlar birdek rivojlangan emas. Ammo, bu qobiliyatlarni shakllantirish, idrok ko'nikmalarini hosil qilish, inson tug'ilganidan to shaxs sifatida shakllanguniga qadar davom etadi. Xususan, bunda ma'lum bir yoshning ko'p kitob o'qishi, o'z mamlakati tarixini o'rganishi, urf-odatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiya topishi, bir so'z bilan aytganda, unda milliy e'tiqod - milliy faxr shakllanishi muhim o'rin tutadi. O'z millati qadriyatlarini qadrlagan, o'z tarixini bilgan, Vatanga e'tiqodi shakllangan yoshlarning axborot oqimlarining ta'siriga tushib qolish ehtimoli kam. Chunki bunday yoshlarda o'ziga xos psixologiya va masalaga o'ziga xos yondashuv paydo bo'lgan bo'ladi. U har qanday axborot zahirida ma'lum bir maqsadni o'rgana boshlaydi. Sobiq ittifoq davrida chetdan kirib kelayotgan axborot oqimi qattiq nazorat qilingan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, axborot oqimiga keng yo'l ochildi. Tabiiyki, hali axborotga "och bo'lgan" aholi kirib kelayotgan axborotni saralamay turib, "iste'mol" qila boshlaydi. Ular hali yaxshi va yomon, kerakli va keraksiz axborotning farqiga bormasdilar, bir so'z bilan aytganda, aholida xolis axborot oqimidan noxolisini ajratib olish uchun idrok shakllanib ulgurmagan edi. Shuning asorati hozirgi kunda, ayniqsa, sezilmoqda. Bu ba'zan shaxsda har qanday axborotni mutloq haqiqat sifatida qabul qilinishini keltirib chiqarmoqda.

1.2. Axborotning shakllari va xususiyatlari

Inson hayotini axborotsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Axborotning esa hayotda turli xil ko'rinishlari va turlari bor, masalan, axborot matn, tasvir, jadval, animasiya, audio va video kabi ko'rinishlarga ega. Shu bilan birga biror ko'rinishdagi axborotdan foydalana olishimiz uchun u qanday xususiyatlarga ega bo'lishi zarurligi ham g'oyatda muhimdir.


Axborotning shakllari: matn, tasvir, animasiya, audio va video. Ma'lumki, axborotlarni insonlar bir-biriga uzatish jarayonida matn ko'rinishdagi, jadval ko'rinishdagi, tovush ko'rinishdagi va tasvir ko'rinishdagi ma'lumotlardan foydalanadi.

Matn. Matn - bu ma'lumotlarni ifodalash shakli bo'lib, u mazmunan yagona, yaxlit va tanlangan tilning belgilari ketma-ketligidan iborat. Matn hujjat asosidir. Axborot tizimiga matn kiritish klaviatura, nurli pero, mikrofon, yoki skaner yordamida amalga oshiriladi. Matnlarga ishlov berish matn muharriri deb ataluvchi maxsus amaliy dasturlar majmuasi tomonidan amalga oshiriladi. Tarmoq orhali matnlar ma'lumotlar bo'laklari ko'rinishida uzatiladi.

Tanlangan maqola

Alisher Navoiy (1441, fev. — 1501 yan.) — ulug' o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi. G'arbda **chig'atoy** adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi, sharqda «nizomi millati va d-din» (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug'lanadi.

Belgili. Turli ishoraviy belgilardan iborat axborotlar. Bular biror voqea- hodisalar haqidagi axborotlarni uzatishda foydalaniladi.




Tasvir. Tasvir - bu biror voqea, xodisa yoki jarayonlarni o'zida ifodalagan rasm bo'laklari va ranglardan iborat ma'lumotdir. Foto, manzara, matematik funksiyalar grafigi, statistik ma'lumotlar diagrammasi va shunga o'xshash ma'lumotlar tasvir hisoblanadi. Kompyuter yordamida tasvirlarga ishlov berishni to'rt guruhga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Kulrang va rangli tasvirlar;
2. Ikki xil va bir necha "rangli" tasvirlar;
3. Uzluksiz egri va to'g'ri cqiziqlar;
4. Nuqtalar yoki ko'pburchaklar iborat tasvirlar.

Bu turkumlash tasvirni ko'rib idrok qilish mexanizmi bilan emas, balki ularni taqdim etish va qayta ishlashga yondashish bilan bog'liq.

Grafik shaklidagi axborotlar:



Axborotning asosiy xususiyatlari. Axborotdan hayot faoliyatida foydalana olish uchun, asosan, quyidagi uchta muhim xususiyatga ega bo'lishi lozim:

1. Axborot ma'lum darajada **qimmatli** bo'lishi kerak, aks holda, undan foydalanish ehtiyoji tug'ilmaydi. Qimmatli axborot vaqt o'tishi bilan o'z qimmatini yo'qotishi mumkin. Masalan, "30 sentabr kuni tantana o'tkaziladi" degan axborot 1 noyabrda o'z qimmatini yo'qotadi.
2. Axborot **to'liqlik** xususiyatiga ega bo'lishi lozim, ya'ni axborot o'rganilayotgan narsa yoki hodisani har taraflama to'liq ifodalashi lozim. Aks holda noto'g'ri tushunishga yoki xato qaror qabul qilishga olib keladi. Masalan, sinf rahbaringizning "yakshanba kuni hammamiz teatrga boramiz, shuning uchun hamma teatr binosi oldiga yig'ilsin" degan axboroti to'liq emas. Chunki, qaysi yakshanba, soat nechadaliga noma'lum.


3. Axborotni ishlatish maqsadidan kelib chiqib **foydalilik** yoki **ortiqchalik** xususiyatlarini bilish zarur. Masalan, “2008-yilda daftarga tomoni 5 ta katakka teng bo’lgan kvadrat qizil rangda chizilgan. Uning yuzini hisoblang.” Masalasi uchun kvadrat tomonini bilish yetarli, lekin “2008-yilda” va “qizil rangda” kabi qo’shimchalar berilishi ortiqcha axborotdir ³.

Axborot turlari. Axborotlar yuqoridagi xususiyatlar bilan farqlanishidan tashqari yana ikki turga ya’ni, uzluksiz (analog) va uzlukli (diskret,raqamli) ga ajratiladi.


Ob-havo holati yoki vaqt uzluksiz axborotga misol bo’ladi. Ammo shunday jarayonlar ham borki, ular to’g’risida hamma vaqt ham axborot ololmaymiz. Masalan, faqat soat va minutlarni ko’rsatadigan soat yordamida soniyalarni bilish mumkin emas. U uzoq shaklda faqat soat va daqiqalarni ko’rsatadi, halos. Inson hayoti uzluksiz axborotga misol bo’lsa, uning yurak urishi, nafas olishi uzlukli (chunki, qachondir nafas chiqarishi zarur) axborotga misol bo’ladi (*1-ilogava qarang*).

Axborotlarni uzatish. Axborotni uzatish deganda ehtiyojdan kelib chiqib, uni bir kishidan ikkinchi kishiga yoki bir kompyuterdan ikkinchi kompyuterga turli vositalar yordamida yetkazib berish tushiniladi. Axborotlarni uzatishning turli xil usullari mavjud bo’lib, ular kompyuter dasturlari yordamida, pochta orqali, transport vositalari yordamida, aloqa tarmog’i orqali uzatish mumkin. Aloqa tarmog’i orqali axborotlarni qisqa vaqt ichida uzoq masofaga uzatish mumkin. Bunda ma’lumotlarni uzatish vaqti sezilarli darajada qisqaradi.

³ Axborot – kutubxona va axborot resurs markazlari ishini tashkil qilish.- T.: A.Navoiy nomidagi O’zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. –B.71



Axborotni inson miyasiga qabul qilinish jarayoni. Biz bilamizki, inson organizmidagi barcha funksiyalarni MNS (Markaziy nerv sistemasi) boshqarib turadi. Bu sistema esa bosh miyada joylashgan. Hozir biz qiziqayotgan axborot qabul qilinish jarayoni ham aynan mana shu yerda sodir bo'ladi. Endi buning qanday sodir bo'lishini ko'rib chiqamiz.



Tashqaridan olingan ma'lumot signal tarzida ko'zning to'r pardasiga tushadi (ko'zning to'r pardasi axborotni qabul qiluvchi priyomniklarning kishilarda bo'ladigan bir turidir). To'r parda hamma kishilarda bir xil tuzilgan. Unga tushgan yorug'lik axborot olib keladi, bu- yorug'lik signalidir. To'r pardada yorug'lik signallari ta'sirida elektr signallari hosil bo'ladi, ya'ni ilmiy til bilan aytganda, axborotlar kodi almashinadi - axborot bir shakldan boshqa shaklga o'tadi,

yorug'lik signallari "elektr signallari" ga aylanadi. Ko'z nervi elektr signallarini miyaga yetkazadi⁴.

Bir xildagi signalning boshqa xil signalga aylanishi muayyan qonunlar asosida ro'y beradi. Ko'zning to'r pardasidan ko'z nervi orqali miyaga yetib brogan elektr signallari to'r pardaga tushgan yorug'lik signallarining tezligiga va taqsimlanishiga muayyan tarzda bog'liq bo'ladi. Lekin elektr signallari bilan yorug'lik signallarini bog'lovchi qonunlar berilayotgan axborotning ma'no-mazmuniga mutlaqo bog'liq emas.

Signallar miyaga yetib borgandan keyingina bizning tushunchamizdagi oddiy "AXBOROT"ga aylanadi. Tafakkurimiz turli xil signallardan iboratligini olimlar allaqachonlar aniqlagan, ammo biz o'zimizni xuddi ma'nodor obrazlar bilan fikrlayotgandek his qilamiz. Miyada sodir bo'layotgan jarayonlar yangi axborot keltirib chiqaradiki, ularning ma'nosi va mazmuni miyaga tashqaridan axborot bergan signallarga hamda miyaning xususiyatlariga bog'liq.

Miya qanday ishlaydi, axborotni qanday qilib o'zgartiradi, miyada qanday protseslar ro'y beradi- bu juda muhim, jiddiy masaladirki, uni faqat zamonaviy fan yecha oladi.

Avloddan avlodga- ota-onalardan farzandlarga taxminan bir xildagi axborotlar o'tadi, lekin har avlodning odamlari har xil bo'ladi. Ba'zan odamlar ichida juda iste'dodlilari chiqib qoladi, ularning tafakkuri fanni, san'atni boyitadi, bundaylar insoniyatning iftixoriga aylanadi. Ba'zan buning teskarisi ham bo'ladi.

Dunyoda ulug' iste'dodli shaxslar va kamtar mehnatchilar qo'lga kiritadigan qimmatli axborotlardan tashqari, juda ko'p miqdorda bema'ni "axborotlar" ham to'lib yotibdi. Bunday "axborotlar" ko'pincha kishilarga zarar yetkazadi, tashqi muhit va unda bo'layotgan voqealar haqida tasavvurni buzadi. Ular hech kim o'qimaydigan kitoblar bilan kutubxonalarni to'ldirib tashlaydi, noshud "san'at asarlari", muvaffaqiyatsiz ixtirolar, gazetalardagi yolg'on xabarlar ayni shunday "axborot"larni tarqatadi.

⁴ Layderman.A. Axborotdagi chigalliklar. -T.: "O'zbekiston", 1973. -B.10

Miya fikrlashining yakuni sifatida bajariladigan harakatlar programmasini belgilab beradi-da, miyadan axborot keltiruvchi signallar oqimiga muvofiq yangi ish bosqichi boshlanadi. Signallar oqimi nerv tarmoqlari bo'ylab, kishi tanasidagi barcha harakatlarni boshqaruvchi muskullarga boradi. Bu axborotlar oqimining tanadagi harakatlantiruvchi muskullarni qisqartiradigan va bo'shashtiradigan signallar oqimiga aylanishidir. Demak, nervlar bo'ylab axborot tashuvchi elektr signallari (kodi) yana o'zgarib, harakat signallari (kodi) ga aylanadi. Olim o'z kuzatishlarini yozib borar ekan, xarakatlar kodidan xarflar hosil qiladi. O'kituvchi leksiya o'qiganda miyadan elektr signallari olib kelayotgan axborot yuz muskullariga (nutqni boshqaruvchi muskullarga) yetib keladi; elektr signallari o'zgarib, tovush pardalarining va og'izning xarakatiga, so'ngra tovush kodiga, ya'ni nutq (so'z)ga aylanadi. Bir tur signal (kod)ning boshqa tur signal (kod)ga aylanish qonunlari hech bir vaqt axborotning ma'nosi (mazmuni)ga bog'liq bo'lmaydi. Darhaqiqat, axborotning uzatilishi va signallarning o'zgarishi to'g'risida gapirganimizda o'qituvchi o'qigan leksiyaning va olim yozib bergan xatning mazmuni bizga biron marta xam kerak bo'lmadi. Bu eng muhim xulosadir; ana shu xulosaga muvofiq axborot nazariyasi qonunlaridan tirik odam organizmi faoliyatining muhim xossalarini ta'riflash va o'rganish uchun foydalanish mumkin va shu qonunlarga asoslanib bu faoliyat natijalarini miqdoriy jixatdan o'lchash mumkin, deb hisoblaymiz.

Tirik mavjudotning va mashinaning xarakatlarini tushunchalar bilan ta'riflash va ularni o'xshash metodlarda o'rganish mumkinligi axborot nazariyasining eng muhim natijasidir. Axborot- to'play bilish va undan foydalana olish tirik zotga xos xislat ekanligi shubxasizdir. Lekin nutq yozib olinadigan magnitofon ham axborot to'playdi-ku. Bunda axborotning tovush kodi magnit lentasidagi yozuvga aylanadi. Magnitofonni ishga solib, yozib olingan lentani eshittirar ekanmiz, yozilgan axborotni yana tovush kodiga aylantirgan bo'lamiz⁵.

Lektorning markaziy nerv sistemasida sodir bo'ladigan prosesslar magnitofon lentasidagi yozuvni eshittirishdan ancha murakkabdir. Xullas, fan

⁵ Layderman.A. Axborotdagi chigalliklar. –T.: “O'zbekiston”, 1973. –B.14

hozircha kishi miyasining qanday ishlashini o'rganish va tushunib olish yo'lida dastlabki qadamlarnigina qo'ymoqda. Odam tanasidagi bu muhim a'zoning faoliyati murakkab harakterlar programmasini belgilash (ishlab chiqish) dan va bu harakatlarning bajarilishini uzluksiz kuzatib turishdan iborat bo'ladi. Fanni ham, san'atni ham ayni odam miyasi yaratadi, ammo buning qanday sodir bo'lishini hozircha hech kim bilmaydi. "Materiyaning oliy mahsuli hisoblanuvchi miyaning oliy mahsuli" bo'lgan tushunchalar ana shu yerda tug'iladi.

Tirik zot axborotni qabul qilish, bir turdan boshqa turga o'zgartirish va uzatishga qodir. Bunday hususiyat mashinalarda bor. Mashina ishlab turganda uning ma'lum qismlari boshqa qismlarining harakatini, shu bilan bir vaqtda, energiya oqimlarini hamda buyumning ishlanishini boshqaradi. Mashinadagi va tirik zotdagi boshqarish prosessi axborot yig'ish, uni o'zgartirish (qayta ishlash) va undan foydalanish prosesslarining o'zginasi bo'lib, energiya uzatish, uni boshqa turga o'zgartirish hamda undan foydalanish prosesslari bilan birga o'tadi. Barcha mashinalar va barcha tirik zotlar energiya va axborotdan foydalanadi, energiya va axborot oqimlarini uzatish va o'zgartirish prosesslari ularda uzluksiz ravishda sodir bo'lib turadi. Biror maxsulot, masalan, stanok, asbob, gazlama, oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqaradigan mashinalarga energiya va axborotdan tashqari, materiallar hom ashyo va maxsulotlar ham kelib tushadi hamda bir turdan boshqa turga o'zgartiriladi. Obrazli qilib- aytganda, mashinalar olamini uchta kit-energiya, materiallar va axborot ko'tarib turadi. Lekin shuni aytish kerakki, "tayanch kit"larning joylanish tartibi ularning qanchalik muhimligiga va koinotdagi roliga bogliq emas. Masalan, zamonaviy madaniy jamiyat energiya bilan yetarli darajada ta'minlanmasa, yashay olmaydi. Agar gazetalarga nazar tashlasangiz, qaerdadir ko'mir koni, yana bir yerda gaz koni yoki neft koni topilgani haqida mamnuniyat bilan yozilgan xabarlarini o'qiysiz. Bularning hammasi energiya-ku; shunga qaramay, energiya yetishmaydi. Olimlarning hisobicha, kishilik jamiyati hozirgidek katta sur'atlar bilan taraqqiy etaversa, Yer yuzidagi bizga ma'lum bo'lgan energiya manba'larining zapasi taxminan yuz yilgagina yetadi. Demak, yangi energiya manba'larini axtarib topish - quyosh energiyasini o'zlashtirish va

termoyadro sintezi energiyasidan foydalanishni bilib olish zarur. Asrimizga xos bo'lgan bu ikkita masalani muvaffaqiyatli yechish yo'lini hozircha bilmaymiz - buning uchun axborot yetishmayapti.

Polyak olimi Stanislav Lem yozganidek, bunday energetik tosiqni yengish madaniyati tobora yukasalayotgan jamiyat oldida turgan eng muhim masaladir. Lekin, bu muhim masalani hal qilish uchun avvalo axborot to'sig'ini yengish talab qilinadi. Energiya zapasini ko'paytirishdan oldin uni qanday qilib ko'paytirish kerakligini bilib olish, bu tutrida tegishli axborotga ega bo'lish zarur. Buning uchun tabiiyot fanlari sohasidagi tadqiqot ishlarini kengaytirish va kuchaytirib yuborish kerak.

Hozirgi vaqtda fan tez sur'atlar bilan taraqqiy etishi tufayli ko'plab yangidan-yangi axborotlar olinmoqda. Inson shu axborotlarning hammasini qabul qilishga, qayta ishlash (o'zgartirish) ga, undan foydalanishga qodirmi? Inson o'z atrofidagi muhit to'g'risida bilganlarining hammasini hazm qila oladimi? Bu muammo juda ko'p masalalarni o'z ichiga oladiki, ularni yechish oson emas. Shuning uchun biz ma'zkur muammoning hamma masalalariga emas, balki axborot saqlash va izlash masalasi ustidagina to'xtab o'tmoqchimiz⁶.

Axborot izlab... Bizga ma'lum bo'lgan tirik zotlar orasida faqat insongina o'zi kabilar bilan fikr olishish va tajriba almashish qobiliyatiga ega. Bu yerda axborotni tovush va imo-ishora yordamida o'zlash ustida so'z borayotgani yo'q. Buni boshqa jonivorlar ham uddalay oladi. Ularning ba'zilari, masalan, delfinlar tovush chiqarib axborot almashishga juda usta. Bu yerda o'zoq vaqt saqlasa bo'ladigan shaklda yozib olingan, ya'ni qo'lyozmalar, mashinkada bosilgan tekstlar, rasmlar, fotosuratlar, ovoznavis, grafika (chizma) va xokazo ko'rinishlardagi ongli axborotlar nazarda tutilyapti. Insongagina xos bo'lgan bu xususiyat uning juda ko'p axborotni saqlashiga va uzatishiga imkon beradi, xotirasi va bilimi doirasini kengaytiradi, insonni o'tmish avlodlar va boshqa xalqlarning tajribasi hamda bilimiga qatnashtiradi.

⁶ Layderman.A. Axborotdagi chigalliklar. -T.: "O'zbekiston", 1973. -B.17

Har yili saqlanish lozim bo'lgan milliardlab axborotlar birligi, ya'ni turli yozuvlar, xujjatlar, kitoblar to'planadi. Bularning hammasi maxsus saqlash joyiga yig'ilib, shu yerda bir sistemaga (tartibga) solingan to'plamlarda saqlanadi.

Kitoblar saqlanadigan oddiy kitobxonalar singari, turli xujjatlar, chizmalar, texnik loyihalar va hokazolar saqlanadigan binolar ham mavjud. Bunday joylardan istagai vastda zarur axborot olsa bo'ladi. Mumkin kadar ko'proq axborotni iloji boricha tez izlab topish xususan olimlar, injenerlar, vrachlar va boshqalar uchun juda muhimdir, negaki ilmiy tadqiqot ishlarining, loyiha va ixtirolarning muvaffaqiyatli chiqish, kutgan natijani berishi, vrachning kishi hayotini saqlab qolishi ko'pincha shunga bog'liq bo'ladi. Miqdori kun sayin ortib boradigan behisob ko'p ma'lumotlar (xujjatlar) ichidan zarur axborotni qanday qilib topsa bo'ladi? Hozirgi vaqtda texnikaning muayyan sohasi bo'yicha olib borilgan ilmiy ish haqidagi axborotni izlab topishga ketadigan xarajatlar yangidan shunday ilmiy ish o'tkazish xarajatiga teng keladi. Shuning uchun ham Amerikadagi ko'pgina firmalar biror tadqiqot natijalarini izlab topish xarajatlari yigirma ming dollardan oshadigan bo'lsa, uni izlash o'rniga kerakli tadqiqotlarning hammasini, o'zlari yangidan o'tkazadilar, bu ularda qonun tusiga kirgan. Ana shunday sharoitlarda kishilarda mashinalardan foydalanish fikri tug'ildi. Elektron – hisoblash mashinalarining xayotimizda katta rol o'ynashiga tobora ko'proq; ishonmoqdamiz. Hisoblash mashinalari kundalik turmushda ko'proq kerak bo'ladigan, ishlatiladigan axborotlarni qayta ishlab beradi. Bu mashinalar yorlamida Olingan ma'lumotlardan foydalanishga, ularni boshqarishga o'rgansak, ko'plab ishlab chiqaradigan buyumlarni, keng iste'mol bo'yumlarini standartlashdan sekin-asta voz kecha olamiz. Hisoblash mashinalarining tez ishga tushi shi, katta hajmdagi axborotni qayta iashlay olishi hamda turli maqsadlarda ishlatishga yaroqliligi hamnusxalik va standartlash qonun tusiga kirib qolgan zamonaviy sanoat jamiyatida individuallikning va o'ziga xoslikning rivojlanishiga chindan ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mashinalar katta hajmdagi axborotlarni tezda qayta ishlay olganligidan unifikatsiya qilishdan voz kechish va umumiy fikr o'rniga har bir alohida xolning

o`zi to`g`risida konkret fikr aytish mumkin. Masalan, xozirgi vaqtda ko`chada qatnov svetoforlar yordamida boshqariladi, svetofor bitta mashinaning emas, balki juda ko`p mashinalarning xarakatini boshqaradi. Ko`chada qatnov electron-xisoblash mashinalari yordamida boshqarila boshlagach, shu chorraxadan o`tish xavflimi-yo`qmi ekanligini alohida hal qilib bo`ladi, standart mebellar, standart kvartira o`rniga ularni har bir buyuruvchi kimsa tomonidan berilgan texnik shartlarga muvofiq loyixalash imkoniya ti tug`iladi.

Pedagogika soxasidagi amaliy ishlarda muhim o`zgarishlar ro`y beradi. O`quv materialini o`zlashtirish darajasi, navbatdagi temaga o`tish qanchalik maqsadga muvofiqligini va o`tilgan materialni takrorlash zarurmi-yo`qmiligini butun sinf uchun emas, balki har bir talaba uchun alohida xal qilish mumkin bo`ladi.shunday qilib, xisoblash mashinalari turli hollarda har kimning o`ziga yarasha muomala qilish imkoniyatini tug`diradi, hozirgi vaqtda bu masalaga allaqanday konglomerat deb qaralmoqda.

Oltmishinchi yillarda kutubxonalardan zarur kitoblarni, butun dunyoda chiqadigan jurnallardan ilmiy maqolalarni, arxivlardan zarur xujjatlarni va xokozolarni izlab topishda xisoblash mashinalarining xususiyatlaridan foydalanish g`oyasi tug`ildi. Fotorasmga olish metodlarining va axborotni boshqacha yozib olish usullarining takomillashtirilishi bu g`oyani rivojlantirishga yordam berdi. Elektron-xisoblash texnikasi kutubxona, arxivdagi har qanday axborotni izlab toppish, yozma axborotlarni uzatish, chet tillardan tarjima qilish, kutubxona, arxivlarga yangi axborotlar kiritish ishlarining hammasini avtomatik ravishda bajaradi deb taxmin qilingan edi. Bu boradagi ishlar jaxondagi eng yirik mamlakatlarning barchasida boshlab yuboriladi. Biroq xisoblash texnikasi taraqqiyotida katta yutuqlar qo`lga kiritilgan bo`lsa-da, xozircha asosiy maqsadga erishilgani yo`. Chunki asosiy maqsadga erishish biz uylangandan ham qiyinroq bo`lib chiqdi⁷.

⁷ Qog`ozsiz axborot tashuvchilar. - T.: A.Navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. –B.1014

Insoniyatning axborotga bo'lgan ehtiyojini oldindan aytib beradigan ishonchli usullarni topish yanada qiyinroq. Shunday qilib, asosiy masala tez ishga tushadigan va arzon apparat yaratishdangina iborat emas, oldimizda asosiy intellektual muammo turibti.

Axborotni saqlash, izlash sistemalaridan foydalanish bilimli, o'qimishli odamlarning kundalik talabidir. Xalq kutubxonalari shunday sistemalarning hammaga ma'lum turidir. Kitobxonlarning ko'pchiligi maxsus ilmiy kutubxonalar va xar hil texnik axborot markazlari bilan tanish bo'lsa kerak. Lekin axborotlarni saqlash va izlash sistemalari kutubxonalardagina iborat emas, albatta. Bu sistemalar kundalik turmushimizda keng tarqalgan. Yozishmalar saqlanadigan papkalar, schyotlar, inventarlar ro'yxati, turli spravochniklar – bularning barchasi axborotlarni saqlash va izlash sistemalari bo'lib xisoblanadi; pazandalik to'g'risidagi kitoblar, xavaskorlarga taaluqli rangdor diapozitivlar to'plami ham shu kategoriyaga kiradi. Xatto lug'atlar va kitoblarning mundarijalari ham axborot izlash sistemalari jumlasidandir.

Axborotni saqlash va izlash sistemalari yuzaki qarashda bir-biriga mutlaqo o'xshamaydi. Biroq bu sistemalardan barchasining ishi uchta asosiy prosessga asoslangan: yozuvlarni tahlil qilish, eskilardan yangi yozuv xosil qilish va yozuvlarni joyidan surish. Taxlil asosiy prosess bo'lib, yangi yozuvlarni xosil qilish zarurmi-yo'miligini, buni amalgam oshirish usullarini, mavjud yozuvlarni joyidan surishga yoki ulardagi axborotni aloqa liniyalariga uzatishga zarurat bor-yo'qligini xal qilishga imkon beradi. Taxlil vaqtida yozuvlar ba'zi boshqa yozuvlarga solishtiriladi, undagi o'ziga xos belgilarning berilgan ro'yxatga yoki taxlil qiluvchining miyasida to'plangan axborotga mos kelish-kelmasligi tekshiriladi. Mavjud yozuvning solishtirib ko'rilayotgan boshqa ma'lumotga mos kelish-kelmasligiga qarab navbatdagi operatsiya belgilanadi. Solishtirish (taqqoslash) ba'zi boshqa yozuvda muayyan belgilarning tushishi butunlay to'xtaydi, chunki abonentlar o'zlarini qiziqtiruvchi axborotni izlab boshqa joylarga murojaat qiladilar. Shuning uchun sistemaning o'zgarmaydigan doiradagi muayyan savollarga to'liq javob topib muvafaqiyatli ishlarga qarab, u yangidan

tug'ilib turadigan savollarga ham javob topib bera oladi, yangi talabalarni ham qondira oladi, deb ayta olamiz.

Sistemaga uning hozirgi vaqtda mavjud abobebtlariga xizmat ko'rsatishga emas, balki shu sistema mo'ljallangan potensial abonentlarning talabalarini va ijodiy faoliyatni qanchalik to'la qondirishga qarab ham baho berishdan ko'ra, tor doiradagi masalalarni yechishga mo'ljallangan sistemaga baho berish osonroqdir.

Kishi psihikasining imkoniyatlari. “Mijoz”ga juda ko'p miqdorda va yaxshi tashkil etilmagan axborotlar kelib turadiki, ularni hazm qilishning hech iloji yo'q. Sovet omillari V.V. Nalimov bilan Z.M. Melchekoning “Naukometriya” degan kitoblaridan olingan bazi ma'lumotlar bilan tanishing. 50 – yillarning o'rtalarida butun jahonda biologiyaga taaluqli 20 ming xil jurnal nashr etilgan, shularning 6 mingtachasi birinchi darajali axamiyatga ega ega bo'lgan. Mutaxassislarning hisobicha har 18 yilda jurnallar soni ikki baravar ko'paydi; agar bu sur'at kekusida ham shundayligicha saqlansa, 2050 yilga borib biologiyaga taaluqli jurnallar xilining 1400 ming, binobarin, birinchi darajali axamiyatga ega jurnallar soni taxminan 60 mingga etishi turgan gap. Demak shunday jurnallardan foydalanadigan bitta biolog olim bir kunda bir necha o'nlab ilmiy maqolalarni o'qishi, mazmunini anglab olishi, bayon qilinayotgan – materialni o'zlashtirishi va o'z ishida undan foydalanishi lozim. Lekin inson bunga qodir emas. Shunday qilib, axborot olish (uni o'zlashtirish) chegarasini odam psixikasining o'zi belgilaydi. Keyingi vaqtlarda ko'pgina olimlar axborotni o'zlashtirish yo'lidagi psixik to'siq haqidagi masala bilan astoydil shug'ullanishi tufayli bu to'siqni yengish yo'llarini toppish mumkin bo'ldi.

Yuqorida aytganimizdek, kutilmagan va ehtimoldan uzoq xabarda axborotlar soni ko'p bo'ladi. Lekin (mazkur voqeaning amalgam oshirish soning ko'rib chiqilayotgan barcha voqealarining to'la soniga nisbati sifatida) hisoblab chiqarilgan ehtimolligi psixologik kutilayotgan ehtimollikdan mutlaqo farq qiladi. Psixologik kutilayotgan ehtimollik shu konkret sharoitda kishi psixologiyasining “sozligi”ga juda bog'liq bo'ladi. Agar hikoyalarda, qahramon qilich bilan bir urishda qoyani ikkiga bo'lib, suvga yo'lga ochib berdi, deyilsa, biz bunga

taajublanmaymiz, chunki ertaklardagi, hikoyalardagi afsonaviy voqealarga psixikamizni “tayyorlab, sozlab” qo’ygan bo’lamiz, shunga ko’ra hikoya qilinayotgan ajoyib hodisalarni ham hotirjamlik bilan eshitamiz. Agar hayotda bo’lgan voqealardan olib yozilgan zamonaviy dostonlarning birortasidagi qahramon to’g’risida shu gaplar aytilsa, kitobxonlar be’mani hayolparastligi uchun avtorni ayblaydi. Axir, realistik asarlarda voqealarning bayonida afsonaviy xodisalar tilga olinmaydi, ularning ehtimolligi nolga teng bo’ladi. Shuning uchun ham avtor berilgan berilgan juda katta bo’lib, kitobxonning ongini muzlatib qo’yadi.

Inson psixikasi juda moslashuvchandir, olimlar tili bilan aytganda, adaptatsiya qobiliyatiga ega. Lekin axborotning normadan oshib ketishini oson psixikasi juda tez sezadi, shu payt uchun berilgan va o’zi moslashib olgan shartning buzilishiga befarq bo’lolmaydi. Axborotning juda sekin kelib turishi, ya’ni uning zerikarli darajada kam bo’lishi ham psixikaga salbiy ta’sir etadi. Shunga ko’ra axborotlar oqimini samarali o’zlashtirish uchun eng muhim shart – uning bir meyorda kelib turishi, axborotlarning ongimiz zo’riqmasdan o’zlashtira oladigan “portsiya”larga bo’linishi hisoblanadi.

Axborot sohasida Globallashuv. Kitob o’qiganda, televizor ko’rganda yoki suhbatlashganda biz doimo axborot qabul qilamiz va uni o’zimizga kerak bo’lgan ko’rinishga o’tkazish maqsadida qayta ishlaymiz, ya’ni boshqaramiz.

Inson uchun axborotlarni to’plashda uning barcha sezgi a’zolari xizmat qiladi, uzoq masofadagi axborotlarni to’plash uchun esa bu yetarli emas. Buning uchun maxsus texnika vositalar talab qilinadi.

Shuning uchun ham azaldan axborotlar ustida bajariladigan asosiy amallar – ularni to’plash, qayta ishlash va uzatish amallarini bajarish uchun insonning turli vositalarga bo’lgan ehtiyoji ortib brogan va shunga ko’ra har xil uskunalar yaratib, hayotga tadbqiq eta boshlagan.

Axborotlarni qayta ishlash vositalari- bu inson tomonidan ishlab chiqilgan turli xil qurilmalardir. Ular ichida eng asosiysi va samaradori kompyuterdir. Kompyuterning inson hayotidagi ahamiyati kun sayi ortib bormoqda.

Bugungi kunda "Axborot xavfsizligi" tushunchasi faqat axborot texnologiyalari sohasidagi olimlar va mutaxassislar tomonidagina emas, balki davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari vakillari, siyosatchilar, iqtisodchilar va moliyachilar tomonidan ham keng qo'llanila boshlandi. Shu bois har qanday davlat, har qanday jamiyat axborot xavfsizligi muammosiga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Boshqacha aytganda, hozirgi dunyoda axborot xavfsizligini ta'minlash muammolari - axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalangan holati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, axborot qudratli kuchga aylanib, yadro poligonlaridan ham xavfliroq tus olib bormoqda. Jahonda noholis axborot tarqatish, uni salbiy talqin qilish yoki o'z manfaatiga moslab uzatish holatlari avj olmoqda. Shuning uchun ham axborot xavfsizligini ta'minlash har qachongidan ham muhimdir. Demak, axborot xavfsizligini ta'minlash usullarini 'rganish va tatbiq etish zarur va shartdir. Axborot xurujlarining oldini olish, axborot xavfsizliginita'minlash - mamlakatni ichki va tashqi xavflardan himoyalash demakdir. ilgari surgan edi. Bugungi axborot texnologiyalari yuksak taraqqiy etgan , axborot jamiyati qaror topib borayotgan sharoitda masalaning mohiyati o`zgarib ketdi : kimki axborot tarqatishga egalik qilsa , dunyoning taqdiri o`shaning qo`lida bo`ladi. Globallashuv jarayonining kelib chiqishi va unda OAVning roli to'g'risida gapirishdan oldin "globallashuv" terminiga izoh bersak. "Globalizatsiya" - "gloub" (inglizchadan "globe", ya'ni yer shari), "global" ("global", ya'ni butun dunyoga tegishli) va "globallashuv" ("globalize", ya'ni butun dunyoga tarqalishi) so'zlaridan kelib chiqqan. Globallashuv jarayoni 1990 yillar o'rtalarida asrning buyuk kashfiyoti internet paydo bo'lgach, yanada murakkab tabiatga ega bo'ldi. Moskvaning globallashuv muammolari instituti chop etgan "Globallashuv amaliyoti. Yangi asr o'yin qoidalari" to'plamida (2000 yil. 16-bet) globallashuv jarayoni axborot inqilobi, ayniqsa, internetning rivojlanishi hamda moliyaviy bozorlarning integratsiyalashuvi bilan uzviy bog'liq ekani yoziladi. Globallashuv jarayonini olimlar "internatsionallashtirish yoki baynalminallashtirish", "liberallashtirish yoki erkinlashtirish", "universallashtirish", "amerikalashtirish" hamda "g'arblashtirish", deb talqin qilishadi. "Internatsionallashtirish" -

mamlakatlararo munosabatlar, xalqaro savdoning o'sishi, demokratiya va inson huquqlari kabi g'oyalarni o'zaro almashinishidir. "Liberallashtirish" - mamlakatlararo ochiq savdoning chegaralashning man etilishi va jahon iqtisodiyotini erkinlashtirish. "Universallashtirish" - bu turfa qarash va tajribalarning yer yuzidagi barcha insonlar orasida tarqalishi. Iqtisodiy va madaniy aloqalarning o'sishi milliy madaniyat va qadriyatlarning uyg'unlashuviga olib keladi. Boshqacha aytganda, madaniyatlarning qo'shilib ketishi natijasida o'zgacha madaniyat yuzaga keladi. Ingliz olimi Voterning fikriga ko'ra, "g'arblashtirish" jarayonini "zamonaviylashtirish" jarayoni deb ham aytish mumkin. Biroq "zamonaviylashuvning ijtimoiy tuzilishi" bo'lgan kapitalizm, mustamlakachilik, sanoatlashuv, byurokratizm, imperializm va hokazolar globallashuv jarayonining asosiy negizini tashkil qiladi. Ya'ni gap "g'arblashtirish" haqida ketganda, g'arbiy kapitalizmning jahon miqyosida ustun turishi nazarda tutiladi. Masalan, 2000 yil ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda internetdan foydalanuvchilar soni 304 millionni tashkil etgan. Lekin butun dunyoni egallab olgan mazkur axborot tarmog'idan foydalanuvchilar soni davlatlar va mintaqalarda teng taqsimlanmagan. 1999 yil oxirlarida internetdan foydalanuvchilarning 88 foizi rivojlangan davlatlarda istiqomat qilishgan. Bu esa dunyo aholisining 15 foizini tashkil qiladi. AQSh va Kanadada yer yuzi aholisining 5 foizi istiqomat qiladi va mana shu besh foiz aholi internetdan foydalanuvchilarning 50 foizini tashkil etadi. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, internetni butun dunyo axborot tarmog'i deya atash ham qaysidir ma'noda nisbiylik kasb etadi. Hozirgi kunda dunyo globallashuvining yangi davri "axborot asri" yoki "elektron yuz yillik" tomon qadam tashlamoqda. Sun'iy yo'ldoshlar va internet orqali telekommunikatsiyalarning faoliyat yuritishi har kim va har narsa uchun yer sharining xohlagan chekkasiga borish va joylashish, ya'ni diterrioriallashtirish imkoniyatini yaratadi. Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy saloqiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning

mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo'yish bilan baravar bo'ladi. Biroq, har qanday hodisa singari globallashuv ham o'ziga xos jihatlariga ega. Masalan, bugungi kunda "urf" bo'layotgan g'oyalar va madaniyatlarning sohasidagi globallashuvga diqqatingizni qaratmoqchimiz. Ayrim tadqiqotchilar dunyoviy demokratiya, siyosiy plyuralizm, ochiq jamiyat g'oyalari hozirgi davr globallashuvining negizidir deyishmoqda. Ammo, mamlakatimiz bizning tarixiy, madaniy xususiyatlarimizga xos mos tarzda o'z taraqqiyot yo'lini belgilagan. Shu yo'lda dunyoviy demokratik davlat qurishni maqsad qilib olganmiz. Globallashuv bayrog'i ostida ayrimlar o'ylayotgani, xohlayotgani kabi ko'r-ko'rona g'arbiylashtirish - "vesternizatsiya" siyosatini qabul qilolmaymiz. G'arb ijtimoiy andazalarini tabiatimizga moslay olmaymiz, ruhiyatimizga singdirolmaymiz. Bunday andaza-yu asoslarni mintaqamizda, yurtimizda joriy etishga urinayotganlar o'zlik tuyg'ularini paymol qilishni o'ylashadi. Bu yo'lda "g'arb madaniyati"ning turli xil tazyiqlarini ham kuzatishimiz mumkin. Turli xil pornofilmlar, yovuzlik, o'ldirish-otish, xunrezlik urchigan videotasmalar, ahloqsizlik urchigan kinolar, yalang'ochlik va hayosizlik asosida chop etilgan nashrlarni tarqatishga urinishlar, g'arb estradasining o'ziga davlatlarga ham bostirib kirishini istagan "Globallashuv tarafdorlari"ning asl muddoasi - madaniy yemirilishlar asri vujudga kelishini jon dili bilan istashayotganini nafaqat ziyolilar, yurtimizdagi har bir fuqaro anglab yetishi kerak. Globallashuvning yana bir xavfli jihati: bugun dunyo yagona axborot maydoniga aylanmoqda. Shu bilan birga xavfsizlik va barqarorlikka tahdid soluvchi yangi, misli ko'rilmagan xavf-xatar, tahdid paydo bo'layapti. Uyushgan jinoyatchilik, jahon terrorizmi qo'lida axborot xavfli qurolga aylanmoqda. Hozirgi kunda, ma'lumotlarga qaraganda, axborot tahdidini uyushtirish ustida 120 ga yaqin davlat "hamjihatlik" bilan ish olib

borayapti. Demak, yagona axborot makonini yaratish, undan axborot tahdidi yo'lida foydalanish shu darajaga yetdiki, axborot makonidagi xuruj yadro poligonlaridan ko'ra xavfliroq bo'lib qoldi. Bugungi kunda 20 ga yaqin davlatda yadro quroli ishlab chiqarish borasida sa'y-harakatlar davom etayotgan pallada, axborot tahdidi bilan 120 ga yaqin davlatning jiddiy shug'ullanishi, dunyoni yadro urushidan ko'ra, axborot xuruji talvasaga solayotganidan dalolat beradi. Globallashuv hodisasini mukammal o'rganmay turib, uning har bir mamlakat yoki millatga keltiradigan foyda va ziyonini chuqur anglamasdan uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirib bo'lmaydi. Globallashuvdan foydalanish strategiyasi, taktikasi, texnologiyasini ishlab chiqmaslik har qaysi mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini boshi berk ko'chaga olib borishi mumkin. Umumbashariy madaniyat insonning ongu shuurini nurafshon etadi. Millatning qarashlariga ijobiy ta'sir qiladi. Biroq vayronkor g'oyalarning bir dasta gul ichida o'tkir xanjar kabi yashirinib turishi globallashuvning salbiy jihatlari ham borligini esga soladi. Chetdan o'tkazilayotgan mafkuraviy ta'sir va tazyiqlar globallashuv shabadasini bo'ronga va dovulga aylantirib yuborayotganidan ko'z yummasligimiz kerak. Shu o'rinda rossiyalik olim A.Zinovevning "Globallashuv yangi jahon urushi. U yangi tipdagi jahon urushi..." degan ta'kidini kishini ancha sergak torttiradi. Yana bir olim A.Parshev esa:

"Aslida globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo'shimcha qiymatini, dunyodagi asosiy zaxiralarni o'zlashtirishdan iboratdir...⁸", deydi.boshqalardan izlab , o'zini "yetuklar" qatorida his qiluvchi tarbiya, axloq haqida gapira turib: "...bizning davrda boshqacha edi, bizlar yaxshi edik, bizlarga umuman gap yo'q edi..." qabilidagi "porloq" xotiralarni aljirashdan nariga o'tmaydigan murabbiy yoki ota- onalarni bugungi kun talabi darajasidagi tarbiyachilar deyishga til bormaydi. Aslida, dunyoqarash qotib qolgan, izlanmaydigan, g'oyasi, saviyasi eskilik (sovet) sarqitlari bilan g'uborlangan kishilar shular emasmiq Ana shunday kayfiyatdagi bir "tarbiyachi"ning e'tirof

⁸ Do'stmuhammedov.H. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. –T.: "O'zbekiston", 2005. –B.516

etishicha, "hozir zamon shunaqa" emish. Bu o'rinda Ommaviy Axborot Vositaning ta'sir kuchida nazardan qochirmaslik o'rinli. Taassufki, "erkinlik", "demokratiya" niqobi ostida faoliyat yuritayotgan "rangli matbuot" hamda "serjilo telekanallar", teletarmoqlar, yengil qilib aytganda, "beboshlikning" eng yuqori cho'qqisiga chiqib oldi va ularga "til tekkizish" "globallashuv" atalmish mezon"ga, g'arbona demokratiyaga zid amal o'laroq talqin qilinadigan bo'ldi. Bizga iqtisodiy taraqqiyot, farovonlik, yurt obodligi, erkinlik, demokratiya ham kerak va zarur. Ammo jamiyatda har xil ma'naviy zug'umni, fahshni ochiq-oydin targ'ib etayotganlarni bir og'iz "globallashuv" degancha oqlab, tomoshabin bo'lib turaveramizmiq Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek sohaga doir Yurtboshimizning alohida qarorlari chiqdi. Aytmoqchimanki, har xil niqobda yurtimizga baloyi azimdek yopirilib kelayotgan "kanalizatsiya" tarmoqlariga uzil kesil choralar ko'rish kerak.Va, albatta, ta'qiqlash shart. Ko'rib-bilib turibmiz yon atrofdagi, qo'shnidagi "demokratik" manzaralarni. Tinchligimizga, xalqimizning yuksak ma'naviyatiga raxna solib buzg'unchilik ishlariga bel bog'lagan ko'ngli marazga to'la g'animlarning maqsadi tayin. Ko'pgina yoshlarning ma'naviyati zaharlanib bormoqda. Ularning mafkurasiga arzimaydigan, kerakmas bo'lgan g'oyalar qamrab olgan. Qisqa qilib aytadigan bo'lsam, kompyuter tilida "virus", ya'ni zaharlanib bormoqda. Xo'sh,bularni oldini olish uchun nimalar qilish lozimh Axir bu faqat o'zigagina emas, balki atrofdagilarni ham zaharlaydiku. Men ko'pgina ota-onalarga, ustozlarga bugungi yoshlarning fikrlashish jarayonida ogoh va hushyor bo'lib turishlarini istardim.O'z navbatida, ko'proq qamrab oluvchi va butun dunyoning madaniy an'alariga kirib keluvchi global madaniy yo'nalishlar vujudga keldi. Bu jarayonga ikkinchi tomondan yondashganda, uning ijobiy tomonlarini ham ko'rishimiz mumkin. Dunyo miqyosida ilmiy tadqiqot faoliyatida akademik infratuzilmalarning dunyoviy rivojlanishi, xalqaro akademik almashuv dasturlari, internatsional forumlar, ilmiy nashriyotlar, jurnallar "global ilm"ni shakllantirishga yordam beradi. Hozirgi paytda tarqatilayotgan axborotning 85% dunyoda ingliz tilida chop etilmoqda. U har xil millat va irqqa mansub bo'lgan kishilarni birlashtiradi, lekin shu bilan bir qatorda rus, xitoy, nemis, fransuz, ispan

kabi rivojlangan tillarga tahdid soladi. Yuqorida ta'kidlagan tillarning ishlatilishi o'zining milliy hududlarida ham torayib bormoqda. Milliy tillar inglizcha kosmopolitik so'zlar bilan buzilib ketmoqda. Bora-bora global unifikatsiyalangan hayot tarzining turg'un yo'nalishi vujudga kelishi mumkin. Er kurrasining turli burchaklarida insonlar bir xil ovqat iste'mol qilishadi, bir xil kiyim kiyishadi, bir xil musiqa eshitadi, bir xil film ko'rishadi, bir xil ommaviy axborot vositalaridan ma'lumot olishadi. Bu turdagi globallashuv millat o'zligining hamma sohalariga tahdid soladi. Rivojlanish, kashfiyot doimo insonni hayratga solib kelgan. Tabiiylik qonuniga ko'ra hayrat bilan boshlangan yangilik biroz vaqt o'tgach hayotning odatiy tarkibiy qismiga aylanib qoladi. Insoniyat tarixida hayrat cho'qqisida eng uzoq turgan kashfiyotlardan biri bu kompyuter va internet bo'lsa ajab emas. Kompyuter texnologiyalari bugun hayotga shiddat bilan kirib kelayapti. Yangi narsa esa yosh avlod uchun doim qiziqarli. Lekin o'sha yosh avlod mazkur sohani ipidan ignasigacha mukammal egallashga harakat qilayaptimi yoki uning quliga aylanib borayaptimi, buni ajratib olish mushkul Agar bolaning o'ziga qo'yib bersangiz, u soatlab va hatto kunlab ana shu mashina oldida muk tushib o'tirishi mumkin. "Bu yaxshi emas!" ligini barchamiz bilamiz. Lekin bunga baribir to'sqinlik qilolmaymiz. Buning sabablari juda ko'p. Birinchidan, bolani har qadamda nazorat qilishning imkoni yo'q yoki bunday ishning oqibati bolaga nisbatan ishonchsizlik va uni bezdirib qo'yish bilan tugashi mumkin. Ikkinchidan, katta avlodning kompyuter texnologiyalari borasidagi bilimlari yetishmasligi. Ular bolaga bu borada o'rnak bo'lolmaydi yoki yo'l-yo'riq ko'rsata olmaydi.

Uchinchidan, axborot tabiiy ravishda ko'payib boraveradi. Bu jarayonni esa faqat bolani, qo'pol tushuntirganda, qamab qo'yibgina to'xtatib turish mumkin. O'zMU psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi Liliya Sultanova o'zining ana shunday o'yinlar bozori bilan qiziqqanini ta'kidladi: - Bilasizmi, kompyuterda o'ynash uchun mo'ljallangan o'yinlar (disklar) turini o'rgandim. Ma'lum bo'ldiki, bozorda disk ko'rinishida sotilayotgan o'yinlarning deyarli 95 foizi qotillik, o'g'rilik, zo'ravonlik va shu kabi xatti-harakatlar asosiga qurilgan ekan. Doimiy kopyuter o'yinlarini o'ynash bolada ko'nikish paydo qiladi va asta-sekin eng

dahshatli jinoyatlarni ham u oddiy holdek qabul qiladi. Bola dunyoqarashiga katta ta'sir o'tkaziladi: unda bir urib ko'rsam, mushtlashsam degan fikrlar paydo bo'ladi. U bu dunyo shafqatsiz, unda faqat kuchlilargina g'olib chiqadi, deb o'ylay boshlaydi. Shuningdek, o'yinlarda ayrim davlatlarning ramzlari qo'llanadi. Bolaga ularni tanlash taklif etiladi. Va ana shu vosita orqali bizning turmush tarzimiz eng zo'r, bizdan ibrat oling, degan g'oya sezilarsiz tarzda singdirib boriladi. Bu juda jiddiy g'oyaviy ta'sirdir. Lekin bolaga o'yin o'ynashni taqiqlash ham noto'g'ri. Negaki tafakkurni rivojlantirishga yordam beruvchi, til o'rganishga ko'maklashuvchi o'yinlar mavjudligini inkor qilolmaymiz. Faqat ularni me'yorida o'ynash lozim. Deylik, o'smirlar uchun kuniga bir soat (har bir narsaning me'yorida bo'lgani yaxshi) o'yin yetarli. Bolaga o'yinda odam o'ldirganligi uchun, mashina o'g'irlagani uchun pul berishadi. Bu unga yoqadi, u g'olib bo'ladi. Bola miyasi "nusxa ko'chirish"ga juda usta. Xo'sh, uning hayotda ham ana shunday g'olib bo'lgisi kelib qolmasligiga kim kafolat beradi. Kopyuter, internet, ayniqsa, kichik oilalardagi bolalarni alohida olamda yashashga o'rgatib qo'yadi. U voqealarni o'zi mushohada qiladi va o'zi qaror chiqaradi. "To'g'ri" yoki "noto'g'ri" degan tushunchalar uning ongida istalgan shaklda rivojlanishi mumkin. Bu quruq vahima emas. Bizda endi-endi rivojlanayotgan jarayonning taraqqiy etgan davlatlarda oqibatlarini ko'rishimiz mumkin. Kanadalik 25 yoshli Kimvir Jill 20 kishini jarohatlab, 18 yoshli qizni o'ldirgan, keyin esa o'zini ham otib tashlagan. Mutaxassislar uning Internetdagi yozishmalarini izlab topishgach, ma'lum bo'ldiki, u pochta xodimlari tomonidan sodir etiluvchi be'mani qotilliklar asosiga qurilgan "Postal" o'yinining ashaddiy ishqibozi bo'lgan. Bu o'yinlar oqibatida Moskva sinagogida ham Aleksandr Koptsev tomonidan qirg'in amalga oshirilgan⁹. Yigitchalarning jinoyat olamiga umuman dahli yo'qligini ham ta'kidlash kerak. Umuman olganda, so'nggi vaqtlarda bu kabi odam joniga qasd qilgan o'quvchilar, yoshlar haqidagi xabarlar oqimi ko'payib qolgan. Kompyuter o'yinlariyu internet tarmog'iga haddan ortiq bog'lanib qolishni mutaxassislar kasallik, deya baholashmoqda. Garchi buning qay darajadagi ruhiy xastalik ekanligi noma'lum

⁹ Mo'minov.M. Ommaviy axborot vositalari va tipologiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2000. –B 414

bo'lsa-da, lekin yuqori texnologiyalarsiz "yasholmayotganlar" soni o'sib bormoqda. Amerikada 2,5 ming kishi o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, 70 foiz odam internetsiz umuman yashay olmasligini bildirgan. Ularning 14 % butunjahon tarmog'isiz hayot kechirishlari mushkul kechishini aytgan. 12,3 % odam o'zini bu tarmoqda ishlashdan tiyishga urinayotgan ekan. 8,7 % kishi esa Internetga bo'lgan qiziqishini do'stlari, hamkasblari va oila a'zolaridan sir tutishga urinadi. - Ko'pchilik yoshlarning axborotga nisbatan ehtiyoji yuqori, - deydi psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Abdumo'min Rasulov. - Axborot olish imkoniyatlarining yuqoriligi bois internet ularni o'ziga ko'proq jalb etmoqda. Biroq ular ma'lumotlar ahamiyatini ajrata olishmayapti. Shu bois tajovuzkor o'yinlar, axloqsizlikni targ'ib qiluvchi saytlar bilan band bo'lib qolishyapti. Buning oqibatida ular real hayotdan ajralib qoladi, virtual olamga o'tib yashaydi. Lekin buni ularning o'zlari his qilmaydi. Yoshlarning ehtiyojini qondiradigan axborot kam bo'lishi mumkin. Ular uydan, auditoriyadan, do'stlari orasidan o'z his-tuyg'ulari uchun qoniqish ololmaydi. Buning oldini olish uchun ularga real hayotiy shart-sharoitlarni yaratish kerak. Deylik, kutubxona, dars, yana boshqa vositalar orqali o'smir hayotiga yangi mazmun olib kirish mumkin. Jahon tibbiyoti tajribasida kompyuter oldida o'tirib vafot etganlar ham uchragan.

II BOB. SHAXSNI AXBOROT OLISH JARAYONINIG METODIK ASOSLARI

2.1. Shaxsni axborot tahdidlaridan himoyalashning pedagogik shart-sharoitlari

Ayonki, texnik taraqqiyotni to'xtatish mumkin emas: biz buni xohlaymizmi-
yo'qmi, kompyuter texnologiyalari hayotimizda mustahkam o'ringa ega, kompyuter
savodxonligi ko'rsatkichi esa ko'p hollarda insonning yuqori saviyasini belgilab
beruvchi omilga aylanib bormoqda. Bugun kompyuterda ishlashni bilmaydigan
xodimni yaxshi mutaxassis deyish qiyin. Agar o'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida
yoshlarning eng sevimli mashg'ulotlari musiqa tinglash va teleko'rsatuvlar ko'rish
bo'lsa, ayni kunda esa kompyuter va internet avvalgi qiziqishlarni yosh avlod
hayotidan siqib chiqardi. Hozirgi zamon yoshlarining 70 foizi o'z qiziqish va
sevimli mashg'ulotlari haqida so'z yuritganda sport, do'stlar bilan suhbatlashish,
ma'naviy va madaniy hordiq chiqarish chiqarish bilan bir qatorda kompyuter
texnologiyalari, internetga bo'lgan qiziqishini birinchi o'rinda tilga oladi. Onlayn
hayot vakillari Nielsen/Net Ratings kompaniyasi o'tkazgan so'nggi ilmiy
tekshiruvlar natijalariga ko'ra, butun dunyo tarmog'iga ulanayotgan yosh
bolalarning soni kun emas, soat sayin oshmoqda: birgina 2007 yili Yevropada o'sib
kelayotgan yosh avlod vakilining uchdan bir qismi onlayn tizimida bo'lishi
kuzatildi. O'tgan yili dunyo tarmog'ida 10 million yoshlar «sayr qilgan» bo'lsa,
hozirda ularning soni allaqachon 13 millionga yetdi. Mutaxassislarning fikricha, bu
— tabiiy holat. Negaki, kundan-kunga internetdan foydalanayotgan oilalar, demak,
undan foydalanayotgan farzandlar soni kupaymoqda. Bunday onlayn hayotda
yashaydigan yoshlarning katta qismi — 4,5 millioni Buyuk Britaniyaga to'g'ri

keladi. Ular har kuni elektron manzillarini tekshiradi, turli xil saytlardan ma'lumot izlaydi va chat (global tarmoqdagi suhbatxona)lar orqali muloqotda bo'lishadi. Germaniyada hozircha 3 va Fransiyada 1,5 million yoshlar vaqtini asosan onlayn tizimida o'tkazadi. Bir yildan so'ng esa bu ko'rsatkich ikki baravarga oshishi kutilmoqda.

Darhaqiqat, XXI asr zamonaviy yoshlar hayotiga sezilarli chizgilarni kiritdi. O'tgan asr bolalari maktab, turli to'garak va sport seksiyalariga chopgan bo'lsa, bugun ular o'zaro disklar, fleshkalar va axborotni saqlovchi shu kabi boshqa vositalardan imkon boricha tez foydalanishga shoshiladi. Yosh avlodning ota-onalariga nisbatan kompyuter savodxonligi baland, ko'pgina olti yashar bolalar blyutuz (bluetooth) va spam nimaligini kattalarga nisbatan yaxshi biladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri Kanadada o'n yetti yoshgacha bo'lgan 6 ming bola o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, ular sodda ota-onalari o'ylaganidek, internetdan aksariyat, hollarda axborot olish maqsadida foydalanmas ekan. So'rovda ishtirok etganlarning 99 foizi internetdan foydalanishini, ularning har o'n nafaridan sakkiz nafari uyda ulanish imkoniyatiga ega ekanini bildirdi. Kanada yoshlarining yarmidan ko'pi internet va kompyuter texnologiyalarni ota-onalaridan yaxshiroq bilishini aytgan. Ularning 80 foizi mustaqil ravishda internetga ulanishini, ota-onalari kompyuterga himoya vositasi bo'lgan «filtrlash» dasturini o'rnatib qo'ymaganliklari va farzandlari qanday saytlarga kirishini nazorat qilmasligini tan olishdi. Umuman olganda, ota-onalarning aksariyat qismi, aniqrog'i, 65 foizi farzandlari internetdan faqat uy vazifasini tayyorlash uchun foydalanadi, degan fikrda, yoshlar esa ilm olishni eng oxirgi o'ringa qo'yadilar. Ular asosan internet orqali musiqa tinglaydi, elektron manzilni tekshiradi, xullas, vaqtini chog' o'tkazadi. Yoshlarning uchdan ikki qismi internetga yangi do'stlar orttirish va kim bilandir suhbatlashish maqsadida ulanadi, ularning 15 foizi keyinchalik bu munosabatlarni real hayotda davom ettirar ekan.

Muloqotning bu kabi shakllari yaxshi, albatta. Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham borki, unga chuqurroq nazar tashlash lozim. Alohida e'tibor talab etadigan jihat esa internet orqali ta'qib deb nomlanadi.

Virtual ta'qib ommalashmoqda Tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, hozirda maktab yoshidagi bolalar internetdan tobora erta foydalana boshlamoqdalar. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari bemalol maktab yon atrofidagi kafe yoki klubga kirib, internetdan foydalanishi mumkin. Shu bois ular uyda ham internetga ulanish imkoni bo'lishini xohlashi tabiiy. Lekin, mutaxassislarning fikricha, yoshi o'nga yetmagan bola odatda mustaqil ravishda internetdan foydalanish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash va shu asnoda ma'lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha qilib aytganda, «filtrlay» olish qobiliyatiga ega emas. Shu sabab, internetdan yolg'iz qolganda ham foydalanish ehtimoli bo'lgan bolani qattiq nazorat ostiga olish kerak, unga o'zi haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni internet orqali tanishgan odamlarga aytmalikni o'rgatish zarur.

Biroq dunyo tarmog'idagi qanday axborot maktab yoshidagi bolalar uchun foydali bo'lishi mumkin? Kuniga bir necha soatlab kiber makonda «sayohat qiladigan» o'smirlar aslida nima bilan shug'ullanadi va bu holat ularning dunyoqarashi, xarakterida qanday aks etadi? Zarur hollarda o'smirlarning axborot xavfsizligini qay usulda ta'minlash mumkin? Mazkur savollar ko'pchilik ota-onalar hamda yoshlar muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilot xodimlarini tobora ko'proq tashvishga solayapti va o'ylantirmoqda. Bunga jiddiy asos ham bor.

So'nggi paytlarda internet orqali ta'qib etish yoki ilmiy tilda aytadigan bo'lsak, grifing holatlari ko'p kuzatilmoqda. Bu kabi tarmoq bezoriligining eng birinchi qurbonlari aynan yoshlar qatlami, xususan, o'smirlar hisoblanadi. Sababi, shu yoshda bolalar tabiatan ochiq bo'ladi hamda dunyoga faqat ijobiy nuqtai nazar bilan qaraydi. Ular o'zlari erishgan yutuqlari bilan o'rtoqlashishni, o'z fikrlarini birovlariga bayon etishni, g'oyalari bilan bo'lishishni xohlaydilar. O'smirlar o'ta ishonuvchan, kompyuter o'yinlariga qobiliyatli, buyruqlarni osonlikcha bajaradigan bo'ladilar. Atrofdagilar bilan ko'proq muloqotda bo'lib, yangidan-yangi fikr-g'oyalarni o'rtaq tashlaydilar, ularni amalga qo'llashga intiladilar, biroq bu borada ularga hayotiy tajriba yetishmaydi. Shuning uchun ham ular saytlarda qidiruvni amalga oshirayotganda, axborotni qabul qilishda yoki elektron pochta manzilidan

foydalanayotganda kattalar yordamiga muhtoj. Chunki bir qarashda beozor tuyulgan chat xonalar yoki maxsus muloqot dasturlari orqali kechadigan suhbatlar tafakkuri endi shakllanayotgan bolalarni oxir-oqibat jinoyatgacha yetaklab borayotgani hayotiy haqiqat. Grifing bilan shug'ullanuvchilar yoki grifyorlar zamonaviy yoshlarning qiziqishlaridan juda yaxshi xabardor bo'lib, onlayn konferentsiya, forum xonalarida istalgan mavzuda suhbat yuritishi, o'zlarini ularning muammolarini tushunadigan odamlar sifatida ko'rsatishi mumkin, buning ustiga veb tarmoqda anonimlikni saqlash xususiyati qisqa fursat ichida ishonchga kirib olishga imkon yaratadi.

Qarshi kurash choralariga kelsak... Grifing bilan kurashishning eng oddiy usuli — kompyuterga maxsus taqiqlov dasturlari (eng mashhurlari Kiberpatrul yoki Kidskontrol)ni o'rnatish. Shunda o'sha foydalanuvchidan keladigan barcha xabarlar avtomatik tarzda filtrlanadi yoki dasturga ota-onalar tomonidan kiritilgan cheklov tufayli bolaning o'zi qiziqib nojo'ya axborotni olmoqchi bo'lganda avtomatik taqiq ishga tushadi. Ayni paytda mazkur dasturlar ham to'liq xafvsizlikni kafolatlay olmaydi, chunki ba'zida ular foydali axborotni cheklab qo'yishi yoki keraksizini o'tkazib yuborishi mumkin.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda internetdan foydalanish darslari fakultativ sifatida maktab dasturiga kiritila boshlandi. Buni ham grifingga qarshi kurashishning o'ziga xos usuli sifatida ko'rsatish mumkin. Negaki, fakultativ darslar orqali bolalar internetdan olinadigan ma'lumotlarning haqqoniy va to'g'riligini tekshirishga o'rgatiladi. Bunday darslar ayniqsa, o'smirlar uchun zarur.

Internetda grifingdan tashqari aynan o'smir yoshdagilar uchun yana bir qancha xavflar ham bor. Vaqt o'tgani sayin bolalar va internet muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, global tarmoqning yashirin xavflariga faqatgina ta'sir tushib qolishni emas, balki ekstremistik xarakterdagi, sekta va turli xil uyushmalar saytlarining foydalanishga ochiqqligini, virtual firibgarlikka keng yo'l qo'yilganlikni ham ko'rsatish mumkin. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga yetaklashi, bu veb sahifalarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog'lig'iga xavf soluvchi ma'lumotlarni ko'rishiga olib kelishi

tabiiy. Elektron pochta manzillari orqali olingan xabarlar kuchli ruhiy ta'sir o'tkazib, bolalarni internet doirasida va undan tashqarida ham jinoyatga undashi hech gap emas. Bank yoki kredit kartochkasidagi hisob raqamlarni bilgan bolakaylar onlayn savdolarida qatnashish imkoni bilan birga kichik o'yinchoqdan tortib to eng so'nggi rusumdagi mashina sotib olish huquqiga ega degani. Bu narsa ularni virtual firibgarlarning nishoniga aylantiradi.

Shu sabab, global tarmoq foydalanuvchilari ko'p bo'lgan Belorusiyada bu kabi muammolar qator yangi kasblarning vujudga kelishiga ham turtki bo'ldi. Mazkur yangi turdagi mutaxassislarining vazifasi oilada internetdan foydalanish madaniyatini joriy etadigan hamda bolalarga psixologik, ma'naviy hamda jismoniy zarar yetkazmaydigan ochiq va xavfsiz axborot makonini yaratishdan iborat.

Shuningdek, ko'plab jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar va xususiy kompaniyalar o'z faoliyatini internetning bolalarga ta'siri va bundan bo'ladigan zararning oldini olish usullarini o'rganishga qaratgan. Jumladan, internet mazmunini baholash assotsiatsiyasi (ICRA) mustaqil xalqaro tashkilot bo'lib, asosiy vazifasi ota-onalarni ularning farzandlarini tarmoqda kutayotgan ko'ngilsizliklar va xavfli munosabatlar haqida ogohlantirish, kiber makonda bolalarni noto'g'ri axborotlardan himoyalash va so'z erkinligini ta'minlashdan iborat. Ota-onalarga ko'rilayotgan muammolar yuzasidan maslahat, ko'mak beruvchi Kiberfarishtalar (Cyberangels) — internetda bolalar huquqini himoya qilishga yo'naltirilgan Yevropadagi ilk tashkilotga 1995 yili asos solindi va ayni paytda AQSh, Kanada kabi davlatlar ham a'zolar safidan o'rin oldi.



Muammolar chuqurlashgani sayin bu kabi tashkilotlar ham keng ko'lamda tadqiqotlar o'tkazish va xavflarga qarshi kurash choralari ishlab chiqishni kuchaytirmoqda. Xususan, Bolalarni asraylik (Save the Children) xalqaro huquqiy tashkiloti o'tgazgan so'rovnomalar natijasida ma'lum bo'ldiki, AQShdagi 15-17 yashar o'smirlarning 85 foizi, Kanada yoshlarining 93 foizi muntazam ravishda internetdan foydalanadi. Kommunikatsiya vositalari tadqiqoti assotsiatsiyasi (Association for the Research of Communication Media) olgan natijalarga ko'ra esa, o'smirlar katta yoshlilarni 2004 yildayoq internetdan foydalanish bo'yicha ortda qoldirgan.

Ispaniyaning Bolalarni himoya qilish agentligi (Child Protection Agency) tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatdiki, internetdan doimiy ravishda foydalanuvchi bolalarning 44 foizi virtual muloqot paytida hech bo'lmaganda bir marta, 11 foizi esa bir necha bor ta'qib ostiga olingan. E'tiborli tomoni, so'rovlarda ishtirok etgan yoshlarning 14,5 foizi internet orqali notanish odamlar bilan uchrashuv belgilagan, 10 foizi bunday uchrashuvlarga yolg'iz borgan, 7 foizi bu haqda hech kimga hech narsa aytmagan. Dunyo miqyosida esa 38 foiz bolalar zo'ravonlik ruhidagi saytlarni, 26 foizi millatchilik xarakteridagi veb sahifalarni muntazam kuzatib borishi ma'lum bo'ldi.

O'tgan yilning oxirgi oylarida dunyoning eng mashhur kompaniyalaridan biri «Maykrosoft» (Microsoft) 28 davlatda o'zining chat xonalarini yopishini e'lon qildi. Bu harakat bolalar muammolari bilan shug'ullanuvchi huquq-tartibot hamda xayriya tashkilotlari tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi, chunki erkin va nazoratsiz forum xonalar spam, virus va axloqsiz axborotni tarqatish manbaiga aylanib qolgandi. Shu tariqa, MSN tekin chatlari Yevropa, Yaqin Sharq, Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasining ko'plab mamlakatlarida o'z faoliyatini to'xtatdi. O'rniga Microsoft Messenger tezkor xabar almashinish tizimi joriy qilindiki, endilikda bu xizmatdan foydalanish uchun shaxsiy ma'lumotlarni kiritish asosida ro'yxatdan o'tish talab etiladi. Chunki o'tgan yili Buyuk Britaniyada shov-shuvga sabab bo'lgan zo'ravonlar ustidan o'tkazilgan sud jarayonlarining kamida 26

holatida qurbonga aylangan bolalar ta'qibchilar bilan virtual muloqot orqali tanishgani aniqlandi.

Xulosa o'rnida zamonaviy texnologiyalarning tez sur'atlarda o'sishiga qaramay, ba'zan odamlar ulardan oqilona foydalanish qanday kechishi kerakligini to'liq anglab yetmaydi. Kompyuter va internetgacha bo'lgan davrda o'sib-ulg'aygan ko'plab ota-onalar va muallimlarning katta qismi, agar bola internetdan foydalana boshlasa, buning, albatta, foydasidan zarari ko'proq, deb o'ylaydi. Bolani kompyuter yoki internetdan chalg'itish harakati zahirida aslida boshqa bir muammo, ya'ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani aniqlandi. Biroq agar ular o'zlari avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyroq yondashib, uni bartaraf etishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Negaki, savodsizlik masalasidan qochish orqali bolani texnologiyalardan ajratib qo'yish to'g'ri emas. Buning ustiga yana bir jihat e'tiborga loyiq: aynan kattalarning tutgan yo'lidan kelib chiqqan holda bolalarda kibernetik do'stiga nisbatan munosabat shakllanadi.

Shubhasiz, internet bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hamjdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo'lmaydi. Foydalanuvchilar ma'lumotlarning to'g'riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etilarkan, bu jihat «Internetda bo'lsa, demak, to'g'ri» deya fikrlaydigan bolalarga ham tegishlidir. Bu borada ularga internetda xohlagan inson o'z sahifasini yaratishi, unga har qanday ma'lumotni joylashtirishi va bunda unga hech kim to'siqlik qila olmasligini vaqtida tushuntirish zarur. Bolalarga keng doiradagi manbalardan foydalanishga yo'naltirish natijasida faktlarni fikrlardan farqlashga, to'g'riligi tasdiqlanmagan axborotdan himoyalashga ularni o'rgatish mumkin.

2.2. Shaxs ruhiyatiga axborot ta'sirining ijobiy va salbiy jihatlari tahlili

Prezidentimiz aytganlaridek, axborot omili yadroviy poligonlardan ham dahshatli omilga aylanib borayotir. Agar mazkur omilga alohida e'tibor berilmas ekan, u borgan sari kuchayib boradi. Natijada, ayrim kuchlar qo'lida asosiy "qurol"ga aylanadi. Bu esa nafaqat davlatlar yoki mintaqalarda keskin vaziyat

vujudga kelishiga sabab bo'ladi, balki xalqaro miqyosda ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar natijasida milliy xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro xavfsizlik kabi tushunchalar mohiyatini tushinishga, ularning o'zaro bog'liqligini anglashga e'tibor ortib bormoqda. Bugungi dunyoning axborot xavfsizlik holati "Xavfsizlik"ka bo'lgan zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishga va milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka nisbatan konseptual qarashlarni rivojlantirishga undamoqda.

Bugungi globallashuv asrida axborotga bo'lgan talab har qachongidan ko'ra, kuchayib bormoqda. Shunday ekan, xolis va haqqoniy axborotlarni tarqatish, ommaning bu mahsulotga bo'lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko'ra bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari, tele-radio kanallar odamlarni xolis va haqqoniy axborot yetkazadigan, gumanistik qarashlar, ilg'or g'oyalarni ifoda qiladigan erkin minbar sifatida e'tibor beriladigan vositadir. Aslida ham shunday. Bugun jahon miqyosida bo'layotgan olamshumul o'zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fandagi inson aqlini lol qoldiradigan yangiliklaru ixtirolar barcha-barchasi ommaviy axborot vositalari orqali ma'lum bo'lmoqda. Demak, OAV, matbuot yaxshilikka, ezgulikka xizmat qilmoqda. Lekin ming afsuslar bo'lsinki, o'tgan asrning oxirlari, XXI yuz yillikning dastlabki yillarida G'arb matbuotida biz aytgan ezgulikka xizmat qilish o'rniga boshqa buyurtmali "ezgulikka" xizmat qilish hollari ham kuzatilmoqda. Ayniqsa, bu holni sobiq ittifoq parokanda bo'lgach, uning o'rnida tashkil topgan mustaqil respublikalar, xususan, Markaziy Osiyo, ayniqsa, O'zbekiston bilan bog'liq jarayonlarda uchratish mumkin.

Agarda mustaqilligimizning dastlabki yillarida G'arb matbuotining Respublikamizga bo'lgan munosabatini tahlil etadigan bo'lsak, "Ozodlik", "BBS" va boshqa radio hamda gazetalarda ko'proq ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy va shu kabi sohalardagi kamchiliklarga e'tibor qaratilar edi. Lekin, O'zbekiston o'z tashqi siyosatida qat'iy va dadil yo'l tuta boshlaganidan, ayrim xalqaro tashkilotlari "Buyuk derjava" larning yo'rig'iga yurmaganidan, ularning geostrategik rejalarini barbod etgandan so'ng axborot hurujlar avj ola boshladi. So'nggi vaqtlarda ayrim

ommaviy axborot vositalarida terroristik tajovuzlar dunyoning Yevropa qismida "terrorizm" deb baholanib, O'zbekistonda "inson haq-huquqlarining himoyasi" sifatida qaralmoqda. Mana shunday sharoitda, ya'ni, demokratik jarayonlarga baho berishda kim holis yondoshayotganligi, kimning esa berayotgan bahosi uydirma bo'lib, haqiqiy demokratiyaga va milliy manfaatlarga zid ekanligini anglash uchun har birimizda fuqaroviy pozitsiya bo'lishi kerak. Shu o'rinda ulug' alloma Abu Rayxon Beruniy merosidagi ayrim fikrlarga e'tiborni qaratmoqchimiz. Alloma bundan ming yil burun shunday yozib ketganlar.

"Xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg'onlik tusini oladi. Chunki, odamlarning maqsadlari xilma-xil xalqlar o'rtasida tortishish va talashish ko'p. Shunday kishilar ham bo'ladiki, ularning tabiatiga yolg'on xabar tarqatish o'rnashib qolib, go'yoki unga shu vazifa yuklangandek bo'ladi va xabar tarqatmasdan tinchiyolmaydi. Bu yomon xohishlardan va tabiatiga buzuvchi fikrlarning joylashganligidan kelib chiqadi". Qarang bundan o'n asr avval yashab o'tgan bobokalonimiz bugungi kun voqeligi, ayniqsa, o'zini adolatparvar, inson huquqlari himoyachisi, oddiy so'z bilan aytganda, "jurnalist" deb yurgan ayrim kimsalarga bahs berib o'tgan ekanlar. Axborotni himoyalash masalalariga rivojlangan mamlakatlar katta ahamiyat beradi. Hozirgi paytga kelib xalqaro munosabatlar yangi axborot texnologiyalari asosida shakllanayotgani bois, axborotni himoyalash va kompyuter tizimlari xavfsizligini ta'minlash jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlarida "axborot quroli"ga qarshi maxsus davlat dasturini amalga oshirish uchun yiliga 137 mln. dollar sarf qilinadi. *"Bugungi kunda, - degan edi, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov, - insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar Yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf - insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi".*

Kurashning bu turida eng samarali qurol - **axborot**. Shu bois, axborotni o'z maqsadlariga xizmat qildirishga intilish keskin tus olmoqda. Axborot, uni uzatish, qayta ishlash va yig'ish bosqichlari o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Ya'ni, insonning oddiy, kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xatti-harakatlarining asosini ham, dunyo mamlakatlarining insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan qarorlarining manbaini ham axborot tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Mutaxassislarning xulosalariga qaraganda, rahbarlar, boshqaruv xodimlari axborotlar bilan ishlashga o'z vaqtlarining 30 foizdan 80-95 foizgachasini sarflashar ekan. Bu tabiiy holat. Chunki o'z vaqtida va ishonchli axborotlarga ega bo'lish hamda ularni o'z vaqtida yetkazish va amaliyotda unumli foydalanish samarali boshqarishni ta'minlashning sharti hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, endilikda axborot- davlat faoliyatida boshqaruvchilik kuchini sezilarli darajada namoyon qiladi. O'zbekistonning mustaqil bo'lishi uni ayrim davlatlarning bizning mintaqamizga intilishlari mohiyatida ikki muhim jihat- mintaqada geosiyosiy ta'sirga va bu yerdagi tabiiy hamda notabiiy resurslarni tasarruf etishda o'z ulushiga ega bo'lish alohida ko'zga tashlanadi. Boshqa ayrim davlatlardan farqli o'laroq, buning O'zbekiston hukumati tomonidan anglab yetilgani va mazkur masala uning tashqi siyosatida aks etib turishi "katta o'yin" qatnashchilarini o'z manfaatlari yo'lida har qanday usul hamda vositalardan foydalanishga majbur etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bugungi kunda dunyo bo'ylab o'z manfaatlarini keng yoyishning eng maqbul usuli - axborot hurujlari bo'lsa, eng samarali vosita - axborot tizimlari va vositalari hisoblanadi. Axborot hurujlarining tez-tez uyushtirilayotgani aslida "urush"ga munosabatni o'zgarganidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Axborot bilan qurollangan bunday hurujlar davlatlar tomonidan o'z manfaatlari doirasini kengaytirish maqsadida uyushtirilgan ekan, bunday vaziyat mavjud bo'lmaydi. Hozirda turli usullarda olib borilayotgan mafkuraviy targ'ibot va tashviqotlarning asl maqsadi-inson qalbi va ongi uchun kurashga qaratilgan. Bu kurash natijasiga ko'ra uchta asosiy bosqichdan iborat.

Birinchisi - muayyan axborot inson tomonidan qabul qilinmaydi.

Ikkinchisi - axborot inson ongida ma'lumot sifatida saqlanib qolishi va u bundan boshqa bir masala yuzasidan qarorlar qabul qilishda solishtiruvchi manba sifatida foydalanish mumkin.

Uchinchisi - axborot fikr yoki g'oya sifatida inson qalbini egallashi, ma'naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylanishi hamda bu uning amaliy faoliyati asosini tashkil qiluvchi omil bo'lib qolishi mumkin.

Axborot uchinchi holatda insonni harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchini to'la namoyon etadi. Hozirda axborot hurujlari haqida ko'p gapirilayotgan bo'lsada, mutaxassislar tomonidan mazkur tushunchaga hali to'la ta'rif berilganicha yo'q. Buning ustiga, hatto soha tadqiqotchilari, mutaxassislar ham "axborot urushi" degan jumlaning qachondan muomalaga kirgani va axborot-qurol sifatida ilk bor qachon foydalanilgani haqida bir to'xtamga kelgani yo'q. Dunyoning deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarida axborot hurujlari masalasiga jiddiy munosabatning shakllanib ulgurgani, bu borada aniq konsepsiyalarning yaratilgani nafaqat mintaqada, balki jahonda o'zining munosib o'rnini egallash sari intilayotgan O'zbekiston uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning geosiyosiy joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi va boshqa iqtisodiy hamda ijtimoiy salohiyati uning manfaatdor kuchlar tomonidan "axborot hurujlarining obyekti" sifatida qaralishi ehtimolini keltirib chiqaradi."Aslida, hayotning o'zi turli-tuman g'oyalar kurashidan, bahsu munozaralardan iborat. Taraqqiyotning ma'no-mazmuni, kerak bo'lsa, falsafasi ham shunda. Ammo hamma gap har qanday tahdid yoki tahlika oldida vahimaga tushmasdan, ana shu kurash va sinovlarga doimo tayyor turishda ogoh va sergak bo'lishdadir", degan edi Prezidentimiz I.Karimov.

Shu bois, ko'plab davlatlarning oldida axborot- kommunikatsiya va kompyuter tizimlarida ishonchli axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi turibdi.Dunyoda kim axborot bozorini egallasa, o'sha hukmronlik tizginini tutadi, deyishadi. Chunki ayni paytda dunyoni inson emas, aynan axborot boshqarmoqda. SNN bilan BBS ning ovozi yetmayotgan joyda "Al-jazira"ning mahsulotlari sotilayotgan ekan, bu axborot bozorida yangicha qarashning paydo bo'lishiga imkon beradi.

Shifokorlar tilida "addiksiya" degan atama bo'lib, u biror narsaga o'zini unutar darajada qiziqib ketish, ishtiyohmandlikni anglatadi. Bunday qiziqish, afsuski, bir hator salbiy ohibatlarni - oilaviy, ijtimoiy va boshqa muammolarni ham keltirib chiharadi. hatto biror narsaga bunday haddan ortih berilib ketish natijasida oqimda ruhiy kasallik ham paydo bo'lishi mumkin ekan. Shaxsning biror narsaga haddan ortih berilib ketishi natijasida unda fikr o'tmaslashuvi paydo bo'ladi, bu oddiy tuyulsa-da, insonga, jamiyatga katta ma'naviy zarar yetkazadi. Qisqa qilib aytganda, addiksiya tushunchasi keng ma'noda odamlarning ko'plab odatlari va xulq-atvor xususiyatlarini hamrab olishi mumkin. hatto shunchaki beharaz tuyulgan markalarni kolleksiya qilish haddan oshib ketganda addiksiya sifatida baholanishi mumkin. Bordi-yu filatesist (marka to'plovchi) oxirgi pullarini ham o'z xobbisi (ishtiyogi)ga sarf hilsa, buni boshhacha atash mumkinmih Baliq ovlash, ashaddiy futbol ishibozligi, soatlab fitnes bilan shuhullanish kabilar - u yoki bu hollarda (ma'lum bir vaziyatda) salbiy odatga aylanishi mumkin. Pornosyorfing (pornografik suratlar va filmlar ko'rishga qizihish), aurenalinomaniya (qaltis shoularga va ularda hatnashishga o'ta ishtiyomandlik)ni ham addiksiya sirasiga kiritish mumkin. Bunday qiziqishlarning hammasini bir narsa birlashtirib turadi. Bu qiziqishlar qandaydir ichki muammolardan qochishga yordamlashadi, muammo mavjud bo'lsa-da, uni payqamaslikka imkon beradi. Shunisi qiziqki, keyingi yillarda biror narsaga bunday qaramlik yangidan-yangi turlari paydo bo'lmohda. huyida ana shunday qaramliklardan ba'zilar hahida to'xtalib o'tamiz.

O'yinga ishtiyohmandlik (ludomaniya) bunda mutaxassislar biror odamning ma'lum bir o'yinga (odatda bu pul tikib o'ynaladigan avtomat o'yinlar yoki boshhacha aytganda azartli o'yinlar) bor vujudi bilan berilib ketishini ko'rsatadilar. Ludomaniya kasallik sifatida baholanadi va hatto kasalliklar xalharo tasnifiga ham kiritilgan. Butun dunyoda bu kasallik bilan ohrikanlar Yer shari aholisi umumiy sonining 1,5-2%ni tashkil hiladi. Yana 6-7% odamlar bunday o'yinlarda duch kelganda o'zlarini to'xtata olmaydilar, ya'ni ularni ham ludomanlar toifasiga kiritish mumkin. Bunday toifadagilarning asosiy hismi erkaklardan iborat. Biroh, bunday ishtiyohmandlik ta'siriga tushib holgan ayollar azartli o'yinlarga bo'lgan

ruhiy qaramlikni yengishlari nihoyatda hiyin bo'ladi. Odatda erkaklar 20 yoshdan keyin azartli o'yinlarga qaram bo'lish ehtimoli kuchli. Shu sohada Tadqiqot olib borgan psixologlar nafahadagi odamlar va o'smirlarda o'yinlar ta'siriga tushib holish ko'payib borayotganligini ta'kidlashadi. Buning asosiy sababi ularda bekorchi vaqtning ko'pligi va xatti-harakatiga tanhidiy baho berish hobiliyatining pastligidir. Demak, bekor o'tirmang. Bunday o'yinlar ishhiboziga aylangan odam tafakkurini "bugun yo ertaga juda katta yutuh (odatda bu jek-pot deb ataladi) yutaman", degan tushuncha egallab oladi. Shunga ishonib u o'ynayveradi-o'ynayveradi, harzga botadi, o'yinga pul topish uchun turli firibgarliklarga aralashib holishi mumkin. Eng yomoni pul tikib o'ynaladigan o'yinlar (avtomat o'yinlar)ga qaram bo'lib holgan kishining fahat o'zigina emas, balki u bilan birga 15-20 kishi jabr ko'rishi tayin. Odatda bular o'ta ishtiyohmandlik kasaliga yo'lihan shaxsning oila a'zolari, harindoshlari, tanishlari, hamkasblari hamdir. Ko'rinib turibdiki ludomaniya ijtimoiy muammolar ham keltirib chihararkan. Shu ma'noda olib haraganda respublikamizda 2007 yil 1 sentyabridan boshlab pul tikib o'ynaladigan o'yinlar, lotereya o'yinlari bozorini tartibga solishni takomillashtirish to'g'risidagi farmon tom ma'noda o'z vaqtida qabul hilingan o'ta muhim normativ hujjat bo'ldi, deyish mumkin.

Shopingomaniya ya'ni (xarid qilishga ruju ho'yish) ham shunday ishhibozlik turlaridan hisoblanib, bunda odam bo'lar-bo'lmasga narsalar xarid hilaveradi. Odatda bu ayollar orasida ko'proh uchraydi. Bunday ishhibozlik ta'siriga tushgan odam o'zi xarid hilayotgan buyumning kerak bo'lish-bo'lmasligi to'g'risida o'ylab ham o'tirmaydi. Asosiysi - u narsa sotib olsa bo'lgani, shu bilan o'zini ovutadi, o'zidan honihish hosil hiladi. Ruhshunoslar shoppingomaniyaga ko'proh o'ziga yetarlicha baho bera olmaydigan, shuningdek, yohizlik va depressiyadan jabr tortayotgan kishilar tez beriladi, deb hisoblaydilar. Bunday xastalikka uchragan ayollar o'zlarining tashhi ko'rinishi bilan bohlih narsalarni sotib olishga ruju ho'ysalar, erkaklar esa hokimiyat va nufuz ramzi bo'lgan buyumlar (masalan, himmatbaho aksessuarlar, mashina) kabilarni xush ko'radilar.

Telemaniya, ya'ni televizor ko'rishga haddan ortih ruju ho'yish ham psixologik jihatdan me'yordan chihish deb baholanadi. Bunday ishhibozlikka uchragan odam tanafussiz ravishda to'g'ri kelgan ko'rsatuvlarni (konsert, xabarlar, seriallar va hatto reklamalarni ham) ko'raveradi. Bunday qaramlikning asosiy belgisi hadeb pulni bosib yoki murvatni burab kanallarni almashtiraverishdir. Mazkur avtomatik harakat shundan dalolat beradiki telemaniyaga uchragan odamga nimani ko'rayotganining umuman farhi yo'h yoki u birvarakayiga hamma kanalni hamrab olish istagidadir. Mutaxassislar kun bo'yi televizorga tikilib o'tirishning zarar ekanligini zo'r berib uhtirmohdalar. Masalan, rossiyalik olim, Tibbiyot fanlari doktori, psixoterapevt Yevgeniy Shaposhnikovning "Argumenti i fakti" gazetasida (2008. №5) keltirilgan fikriga ko'ra katta shaharlar aholisi ruhiy qaramlik darajasigacha yetgan qiziqishlar va ishqibozliklar ta'siriga tobora ko'proq tushmoqdalar. Olim buning asosiy sababini odam shaharda atrof to'la odam bo'lishiga qaramay, o'zini yolg'iz his qilishi mumkin ekanligi bilan izohlaydi. Tabiiyki, bunday holda odam o'zi uchun qulay bo'lgan zamin qidiradi va yuqorida aytilgan ishqibozliklardan birida uni topadi ham. Bunday xobbilar unda o'z qilmishlarining to'g'ri ekanligi, qalbining kemptikligi to'layotganligi haqida yolg'on tasavvurlar uyg'otadi. Ba'zan bunga reklama ham ta'sir qiladi.

Elektron qurilmalarga qaramlik ham shunday xobbilardan biri bo'lib, bunday qaramlikka tushgan odamda uyali telefon, cho'ntak kompyuteri, MR3-pleer va shu kabi mitti qurilmalarga ega bo'lish istagi nihoyatda kuchli bo'ladi. Ularga ega bo'lish, yo'riqnomada yozilganlarini oxirigacha sinab ko'rish, hadeb yangiroq rusumdagisini sotib olishga intilish ham shunday salbiy odatlardan hisoblanadi. Bunday ishtiyoqmandlikka uchragan odamlar biror elektron qurilmasini uyda unutib qoldirsa bormi, kun bo'yi o'zinio'ng'aysiz sezadi, ruhiy tushkunlik holatida yuradi. E'tibor bergan bo'lsangiz, uyali telefonga qaram bo'lib qolgan odam bo'lar-bo'lmasga do'stlari va tanishlariga qo'ng'iroq qilaveradi yoki tinimsiz SMS xabar jo'nataveradi.

Internetga qaramlikni hozircha tibbiyot rasman ruhiy buzilishlar qatoriga kiritmagan. Biroq, shunday bo'lsa-da, bugungi kunda Internetga qaramlik

muammosi haqida tez-tez gapirilmohda. Bunday qaramlikka uchragan odamda hadeb Internetga kirish istagi kuchli bo'ladi va kimgach undan vaqtida chihib ketolmaydi. Internet tarmog'idan qo'qqisdan uzilib qolish bunday odamda tashvish va hissiy qo'zg'alish paydo qiladi. Turli tadqiqotlar ma'lumotiga ko'ra dunyoda 10%ga yaqin odamlar internet qaramligiga duchor bo'lgan. Bunday qaramlikning ohirroq bosqichi doimo kompyuter ro'parasida o'tirish, bir o'tirib olgach do'stlar hatto qarindoshlar bilan uchrashishdan ham voz kechib yuborishdir. Yaxshiyamki, bunday holat kamdan-kam uchraydi. Biroq, bir kunda bir necha marta o'z elektron manzilini tekshirish va hadeb internet-mulohot sahifalariga kirib ko'raverish ham unchalik yaxshi emas.

Internetning salbiy ta'siri:

- A) yot, buzg'unchi g'oyalarning kirib kelishi (diniy ekstremizm, millatchilik, irqchilik, sadizm misolida);
- B) G'arb yashash tarziga xos, lekin o'zbek mentalitetiga zid g'oyalar, qarashlarning yoshlarga ta'siri (kiyinish, chekish, pirsing, tatuirovkalar va hokazo);
- C) pornografik axborotlarning yoshlar tarbiyasiga ta'siri;
- D) tekshirilmagan axborotlar (bo'xtonlar).

Internetning ulkan imkoniyatlari, unda axborot oqimining tezkorligi, auditoriyaning cheklanmaganligi, o'z maqsadlarini terroristik yo'l bilan amalga oshirishni odat qilib olgan - yovuz kuchlarning manfaatlariga ham xizmat qiladi. Endilikda Internet tizimida yuzlab terroristik saytlarning manzillari aniqlangan. Terrorizm - Internetda o'ta izchil voqelik: saytlar to'satdan paydo bo'ladi va tez-tez formatini o'zgartirib turadi. Kutilmaganda esa, o'z mundarijasini saqlagan holda, ammo manzilini o'zgartirish yo'li bilan ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Terroristik saytlar asosan uchta auditoriyaga yo'naltirilgan:

1. Avvaldan mavjud va potensial tarafkashlar
2. Xalqaro jamoatchilik fikri
3. Muayyan mamlakat jamoatchiligi.

Ko'pgina mutaxassislar kiberterrorizmning xavfi haqida bot-bot gapirishsada, terroristlar tomonidan Internetdan shunchaki foydalanishni nazardan chetda

qoldirar ekanlar. Zamonaviy terroristik guruhlar Internetdan asosan quyidagi sakkiz usul orqali foydalanadilar:

- Psixologik urush
- Reklama va targ'ibot
- Ma'lumotlar to'plash
- Vositalar to'plash
- Qo'lga tushirish va safarbar etish
- Tizimlar tashkil etish
- Axborot ta'minoti
- Rejalashtirish va koordinatsiya

Aholini (jamiyatimizni) kiberterrorizm va Internetdagi terroristik harakatlardan himoya qilish bilan birga, bir qator antiterroristik harakatlar majmuini ishlab chiqish talab etilmoqda.

Internetdagi faoliyatning ijobiy tomonlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

A) dunyoqarashning kengayishi;

B) obyektiv va negativ axborotlarni qabul qilib, ularni tahlil qilish imkoniyati (bunda yosh yigit yo qizning axborotga "to'q bo'lishi" va ularni saralay olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Agar unda axborotga bo'lgan "did" bo'lmasa, u axborot oqimida "cho'kib" ketishi mumkin ya'ni, ta'siriga berilib ketishi);

C) masofaviy o'qishlarda ishtirok etish imkoniyati;



D) axborotlarni tanlash imkoniyati borligi.

Bugungi yoshlarning aksariyati asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qilishadi. Lekin ularda axborot immuniteti shakllanmagan mish-mishlar dunyosi bo'lmish "Internet" orqali ma'naviyatga salbiy ta'sir vujudga kelishi mumkin. Nega ta'sir qiladi? Balki yoshlar ma'naviyatining yetarli darajada shakllanmaganligi emasmi? Bugungi kunda yoshlarimiz - turli xil G'arb seriallari ta'sirida, milliy qahramonlarimiz jasoratidan bexabar o'sayotganligi sababli ma'naviyatga qaytadan chuqur e'tibor qaratmas ekanmiz, ularning zehni o'tkir, dunyo bilimlarini egallagan bo'lishlariga qaramasdan, Vatan manfaati yo'lida xizmat qilishlariga, begona g'oyalarga berilmasligiga kafolat ham berolmaymiz. Ularni eng avvalo Vatanga e'tiqodni, urf-odat va qadriyatimizga sadoqatli qilib tarbiyalasak, istalgan buzg'unchi axborotlarga nisbatan o'z axborot immunitetlari shakllanadi.

Axborot qurollari sifatida qaraladigan vositalar:

- axborot massivlarini yo'q qilish, buzish va to'g'rilash;
- himoyalash tizimini aylanib o'tish;
- qonuniy foydalanuvchilar imkoniyatlarini cheklash;
- kompyuter tizimining texnik vositalari ishlashini buzib tashlash;
- kompyuter viruslari;
- mantiqiy bombalar;
- test dasturlarini ishdan chiqaruvchi vositalar
- axborot ayriboshlashni yo'q qiluvchi vositalar;
- har xil turdagi xatoliklar.

Axborot qurolining universalligi, yashirinligi, dasturiy apparat amalga oshirilishi shakllarning ko'p variantligi, ta'sirlarning radikalligi, vaqt va joy tanlash imkonining yetarliligi va nihoyat tejamliyligi, uning juda xavfsizligini ko'rsatadi: u osongina himoya tizimiga yashirinishi mumkin, urush e'lon qilmasdan anonim shaklda hujum harakatlarini olib borishi mumkin.

Hozirgi davrda ishlab chiqarish va boshqarish, mudofaa va aloqa, transport va energetika, moliya va fan, ta'lim, OAV - barchasi axborot almashuvi jadalligiga, haqqoniylikiga, to'liqligi va tezligiga bog'liq. Shuning uchun jamiyatning axborot infrastrukturasi - axborot qurolining nishonidir.

Mana yuqorida biror narsa ta'siriga tushib holish, unga o'ta berilib ketish, aytish mumkinki, qaram bo'lib qolishning yangi turlari haqida gapirib o'tdik. Tabiiyki, bunday qaramliklarning oldini olish borasida dunyo olimlari tomonidan Tadqiqotlar olib borilmohda, ularning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga mo'ljallangan yangi texnologiyalar ishlab chiqilmohda va bu o'z natijasini berishi aniq. Hozircha esa doimo qo'l kelgan bir maslahatni eslatib o'tamiz: Nima bo'lganda ham inson hamma narsada me'yorida ish tutgani, o'z ongi, aqli va irodasiga suyangani ma'qul.

2.3. Shaxsda axborot olish madaniyatini shakllantirish usullari va vositalari

XXI asrga kelib dunyomizga "Globallashuv" deb nom olgan jarayon kirib keldi. Bu jarayonni bugun mutaxassislar dunyoning bir butunlashuvi, dunyoning yaxlitlashuvi kabi nomlar bilan ham izohlashmohda. Mazkur jarayon qanday nom bilan atalmasin, insoniyat hozirda uning ijobiy va salbiy "ta'm"ini his hilib yashamohda. Bir tomondan olib haraganda, dunyoning globallashuvi natijasida umumbashariy tus olgan muammolar o'zining ijobiy yechimini topmoqda, taraqqiyot ilgarilamoqda. Ammo shu bilan birga, globallashuv o'zining salbiy jihatlarini ham namoyon qilmohdaki, natijada mafkuraviy kurash maydonlarida turli tahlikali holatlar paydo bo'lib, odamlarni tashvishga solmohda.

Barcha sohalarda bo'lgani singari dunyoning axborotlashuvida ham globallashuv jarayoni o'zining kuchli ta'sirini ko'rsatmoqda. Natijada axborotlar ko'lami o'lchab bo'lmaydigan darajada kengayib, jamiyat kuchli axborotlar bosimi ostida qolmoqda. Prezidentimiz 2009 yil 9 yanvar kuni O'zbekiston jurnalistlariga hilgan murojaatida "**hech** kimga sir emas, hozirgi vaqtda chetdan ko'lami va miqyosini o'lchab bo'lmaydigan shiddatli informasiya oqimi kirib kelayapti-ki, ular orasida bizga yot va begona bo'lgan zararli g'oyalar ham oz emas. Hammamiz

yaxshi bilamizki, bunday xatarlardan saqlanish uchun jamiyatni temir devor bilan o'rab, himoya qilib bo'lmaydi" (I.A.Karimov. Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirishdir. T., "O'zbekiston ".2009),- deb barchamizni ogohlikka chorlagan edi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 29 - moddasida har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huhuhiga ega... deb ta'kidlab qo'yilgan. Demak, jamiyatimizdagi yoshlarga "Sen uni o'qima!", "Buni ko'rma!" qabilida ta'sir o'tkazishga hech kimning haqqi yo'h. Unda kishilarni, ayniqsa, yoshlarni kuchli axborot bosimi ta'siridan qanday yo'l bilan himoyalash mumkin?

Fikrimizcha, birdan - bir to'g'ri yo'l yoshlarni axborotlarni ongli ravishda saralab qabul qilishga o'rgatish, ya'ni axborot qabul qilish madaniyati-INFOETIKAni shakllantirish zarur. Yoshlarning o'zida axborotlarni qabul qilishda tanlash va saralashga nisbatan ehtiyoj bo'lmasa, ular ongida infoetika madaniyati shakllanmasa, kuchli axborotlar bosimi ostidagi zararli g'oyalar domiga tushib qolish xavfi orta boradi. Bu esa barkamol avlodni tarbiyalashdek muhim vazifani amalga oshirishimizda katta to'siq bo'ladi. Matbuotda e'lon qilingan "Internet hamlasi" nomli maqolada shunday fikrlar keltirilgan. "...mutaxassislarning fikricha, yoshi o'nga yetmagan bola mustaqil ravishda internetdan foydalanish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash va shu asnoda ma'lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha qilib aytganda, "Filtrlay"olish qobiliyatiga ega emas..." ("Ma'rifat", 2009, 4-fevral)

Ayrim o'quvchi yoki talabalar ertalab, birinchi soat mashg'ulotlaridayoq o'zlarida charchoq sezadilar. Mashg'ulotlarni tinglash va hazm qilish uchun o'zlarida kuch topa olmaydilar. Sababi bitta, u ham bo'lsa bunday talaba va o'quvchilar har kuni yarim tungacha televizor qarshisida o'tirib, turli mavzudagi ayqqash filmlarni tomosha qiladilar. Ayrimlari internet tarmog'iga ulangan kompyuter qarshisida soatlab turli saytlarni varahlaydilar, telefonda gaplashadilar. Bunday katta axborot bosimi ostida yurish muttasil davom etsa, har qanday kishini psixologik jihatdan charchatib, zada hilib tashlashi tayin. Agar joiz bo'lsa, buni insondagi axborot qabul qilish sig'imini "to'lib qolganlikka" tenglash mumkindir.

Inson miyasi juda katta imkoniyatlarga ega. Mutaxassislarning fikricha, inson miyasida 16-17 milliardgacha nerv xujayralari bo'lib, odam bolasi uning o'rtacha 3 nari borsa 4 yoki 6 foizidan foydalanishi mumkin ekan. Ammo inson miyasi cheksiz o'lchovdagi axborotlarni qisqa vaqt ichida qabul qilganida kuchli ruhiy tolihishga uchrashi mumkin. Inson tomonidan ixtiro qilingan kompyuter 80 megabaytdan 1000 megabaytgacha axborotni qabul qila olgan holda, insonning o'zi har doim ham ana shunday imkoniyatlarga ega bo'lolmasligi mumkin.

Beqiyos axborot oqimini ramziy ma'noda o'zaniga sig'may oqayotgan, atrofidagi jamiki narsalarni vayron qilayotgan toshqin daryoga qiyoslash mumkin. Bu esa yoshlardan ularni saralab, "puchagi"dan "sara"sini ajratib olishni, axborotlarni "filtrlab" qabul qilish madaniyatini o'rganishni taqozo etmoqda.

Inson qalbi va ongini egallash uchun kurash hozirgi paytda shu darajada keskin tus oldiki, natijada aynan bu ishni o'ziga kasb hilib olgan mutaxassislar armiyasi shakllanib ulgurdi. Ularni ilmiy tilda "Grifyorlar" deb atashmohda Bu kasbdagilar inson bolasini internet orqali grifing ya'ni ta'qib qiladilar. Keyingi vaqtda farzandlarining grifinglar ta'qibiga tushib holishining oldini olish maqsadida ayrim ota-onalar kompyuteriga maxsus "kiberpatrul"lar o'rnatib boshladilar. Biroq bu kabi usullar ham vaqtinchalik bir vosita bo'lib, yoshlarda axborot qabul qilish madaniyatining o'rnini bosolmasligi mutaxassislar tomonidan isbotlanmoqda.



Kishilarda, ayniqsa, yoshlarda hali axborot qabul qilish madaniyati shakllanib ulgurmagan. Bugungi tezkor rivojlanishlar jarayonida axborot tarqatishning eng zamonaviy va samarali ta'sirchan vositalari kashf etilmoqdaki, ular oldida o'qituvchining ma'ruzalari zerikarli tusga kirib holdi. Bugungi kun bolasi kompyuter, INTERNET, ko'p kanalli teleko'rsatuvlar, video, turli DVD, VSD kabi

vositalarga "asir" bo'lib holdi, ayrimlarning ko'ngli o'qishdan sovib bormoqda. Achinarlisi, axborot tarqatish vositalaridan berilayotgan axborotlar oqimi yoshlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri "filtrlashsiz" qabul qilinmohda, bu esa ular ongini zaharlab, ma'naviy-axlohiy dunyosini zaiflashtirada. Bu kabi zararli oqimlarning oldini olish uchun ma'naviy tarbiyani oiladan, ya'ni bolaning ilk tasavvurlari, tushunchalari shakllangan davrdan boshlash maqsadga muvofiq. Buning uchun ishni bolaga oddiy kundalik hayotiy mashg'ulot va harakatlarda shakllanadigan odatlar, ko'nikmalarning qaysi biri to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini singdirishdan, ularga televizordan namoyish etilayotgan ko'rsatuvlarning faqat bolalarga xoslarinigina tomosha qilish kerakligini tushuntirishdan, barcha ko'rsatuvlarni sidirg'asiga tomosha qilish foydasiz, salomatlik uchun zararli ekanligini uqtirishdan boshlash lozim bo'ladi. Mobil telefonning fahat eng zarur hollardagina so'zlashish uchun aloha vositasi ekanligini tushuntirish kerak. Toki, o'quvchi uni o'zi bilan doimo olib yuriladigan muhim matoh emasligini ongli ravishda tushunib yetsin.

Bugungi kunda jadal tarzda ko'payib borayotgan axborotlardan xabardor bo'lish, kerakli ma'lumotni ajratib olish va undan foydalanish mumkin bo'lgan holatda qaydlash tezkorligi va sifati har bir shaxsning axborot olish madaniyati qay darajada shakllanayotganligiga bog'liqdir. Bu omil ayniqsa umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv jarayonini tashkil etish, xususan, uning metodik ta'minoti masalasiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Aynan shuning uchun ham mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar umumiy o'rta ta'lim muassasalari kutubxonalari faoliyatini ham zamonaviy talablar va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda qayta tashkil etish, takomillashtirish zaruriyatini kun tartibiga qo'ymohda. Chunki ular ta'lim tizimi mazmunan va shaklan yangilanayotgan bir pallada hosil bo'layotgan kuchli axborot oqimini qabul qilish, jamlash va o'z o'rnida ularni keng jamoatchilik, o'qituvchilar hamda o'quvchilarga eng manzur yo'llar bilan taqdim etishdek muhim vazifani bajarishlari lozim. Ushbu axborot manbalariga, birinchi galda, o'quv adabiyotlari, me'yoriy hujjatlar,

metodik qo'llanmalar va bevosita ta'lim jarayoniga taalluqli bo'lgan boshqa manbalar kiradi.

Respublika maktab kutubxonalari tomonidan bolalarni kitobxonlikka o'rgatish, ijodiy faoliyatga jalb etish orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimli, ma'naviy barkamol shaxs etib shakllantirish borasida ma'lum ishlar bajarilmoqda. Jumladan, fanlar haftaligi, turli sanalar munosabati bilan o'tkaziladigan anjumanlar, tashkil etiladigan ko'rgazmalar, yangi kitoblar taqdimoti kabi ommaviy tadbirlar o'quvchi va o'qituvchilar diqqatini ko'proq jalb qilmoqda. Respublika miqyosida bir necha yillardan buyon "Eng yaxshi maktab kutubxonasi", "Eng yaxshi kitobxon - kitoblar bilimdoni" ko'rik-tanlovlari muntazam o'tkazilib kelinmoqda. Bu maktab kutubxonalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini vujudga keltirishda muhim vosita bo'lmohda, qolaversa, o'quvchilarning axborot olish madaniyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Lekin ta'lim sohasida kutubxonachilik faqatgina yuqorida sanab o'tilgan ishlar bilangina takomillashib, rivojlanib qolmaydi. Bu sohada o'z yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Maktab kutubxonalarining kitob jamg'armalarini to'laqonli shakllantirish va ularni zamonaviy texnikalar bilan jihozlash, jarayonni avtomatlashtirish, shuningdek, maktab kutubxonalari xodimlarining nazariy va texnik malakalarini oshirish, ularda yangi axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini hosil etish bugungi kunda oldimizda turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Respublikamizda ta'limni modernizasiyalashtirilayotgan jarayonda jamiyatni tezkor axborotlashtirish, o'quv nashrlari bozorini barpo etish, axborot texnologiyalarini rivojlantirish bilan uyg'un tarzda kechmohda. Bularning barchasi umumiy o'rta ta'lim muassasalari kutubxonalarini maktab ta'lim jarayonining ajralmas qismi, chinakam axborot ta'minoti markazi, shaxsning axborot olish madaniyatini shakllantiradigan bazasiga aylantirishni taqozo etadi. Ushbu vazifalarni bajarish yo'lida 2003-2004 o'quv yili "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari kutubxonalari faoliyatini takomillashtirish o'quv yilida xalq ta'limi tizimida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan "Umumiy o'rta ta'lim muassasasi kutubxonasini rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlandi.

Unga muvofiq ravishda umumiy o'rta ta'lim muassasasi kutubxonalarini rivojlantirishning asosiy g'oyasi, ta'lim sifatini oshirishda eng muhim omil bo'lgan yagona axborot muhitini vujudga keltirish bilan bog'liq yo'nalishlar va vazifalar mazmuni belgilab olindi.

"2003 - 2004 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablari kutubxonalarini rivojlantirish dasturi" doirasida umumiy o'rta ta'lim muassasalari kutubxonalarining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish, ularni axborotlashtirish, ta'lim jarayonini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlovchi markazlarga aylantirish borasida amaliy ishlar boshlandi. Bu ishlar, o'z navbatida muayyan ilmiy g'oyalar, konsepsiyalar va nazariy ishlanmalar asosida tashkil etishni taqozo etdi. Tadqiqotning dastlabki tahminiy natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur muammoning yechimida quyidagilar diqqat markazida bo'lishi talab etiladi:

1. Xalq ta'limi vazirligida O'zbekistondagi umumiy o'rta ta'limning barcha yo'nalishlarini qamrab oladigan yagona zamonaviy axborot muhitini yaratish.
2. Zamonaviy axborot muhitini rivojlantirishda respublikamizda mavjud ilmiy-pedagogik salohiyat hamda xorij tajribalaridan samarali foydalanish.
3. Mazkur vazifalarni bajarish uchun elektron axborot resurslarini shakllantirish muammolarini hal etish.
4. Internetdan foydalanish yuzasidan kutubxonachilar va fan o'qituvchilari orasida to'plangan tajribalarni samarali ommalashtirish.
5. Bu omillar mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasining rivojlanishi va zamonaviylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, har bir ta'lim muassasasi global axborot tarmog'idan o'ziga zarur bo'lgan ma'lumotlarni olishi va qayta ishlab foydalanishi lozim. Ilgarilari moddiy ne'matlar jamg'arishga katta ahamiyat berilgan bo'lsa, endilikda axborotlar va bilimlar jamiyatning bosh resurslariga aylanib bormoqda, ya'ni axborotga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, u jamiyat va davlatni rivojlantirishning tabiiy, moliyaviy, mehnat va boshqa resurslarlari bilan bir

qatorda turgan strategik resurs sifatida anglana boshlandi. Zamonaviy axborot resurslari, axborot tizimidagi hujjatlar oqimining tavsif va xususiyatlari tobora o'zgarib bormoqda. Kompyuter texnikasi rivojlanishining bugungi darajasiga ko'ra, qog'oz shakldagi axborot tashuvchilar elektron vositalarga o'tkazilmoqda. Bu holat hujjatlar va ma'lumotnomalargagina emas, balki badiiy matnlar, nazariy, pedagogik va metodik adabiyotlarga ham taalluqlidir. Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyati axborotlarni mislsiz tezlikda, yer yuzining istalgan nuqtasidan turib uzatish va qabul qilish imkonini bermohda. Bugungi kunda kitob nashr qilish ko'lamini kengaytdi, jurnallar va gazetalar (davriy nashrlar) miqdori kun sayin ortib bormoqda, sifati yaxshilanmoqda. Kompyuter texnikasi tufayli hayotimizga Internet kirib keldi, kitoblar ham, matbuot asarlari ham elektron variantda taqdim etila boshlandi. Axborot oqimining ko'pligi u bilan tanishish, qayd qilish, unga ishlov berish, undan foydalanishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ya'ni axborot olish madaniyatini egallash zaruriyatini keltirib chiqardi.

Endi kutubxona deganda o'quvchilarning kitob o'qishi haqidagina emas, balki pedagoglar, o'quv fanlari o'qituvchilari, xalq ta'limi muassasalari xodimlari, boshqacha aytganda, aholining mutolaa madaniyati to'g'risida fikr yuritish odat tusiga aylandi. Jamiyatimiz beqiyos darajada axborotlashayotgan shunday bir sharoitda kutubxonachining kasbiy tayyorgarligini tubdan yaxshilash, kutubxonachilar, o'quvchilar va o'qituvchilarning axborot olish madaniyatini shakllantirish, bu borada ularning o'zaro hamkorlik qilishlarini ta'minlash vazifasi yuzaga keldi, bu vazifa davlat buyurtmasiga aylandi.

Axborotlashayotgan jamiyatda fuqarolarning axborot olish madaniyatini shakllantirish dolzarb ijtimoiy - pedagogik ahamiyatga ega. Mana shu jarayonning samarali kechishida esa pedagoglar, o'quv fanlari o'qituvchilarining o'rni behiyos. O'quvchining kitob o'qishi, pedagoglar va o'quv fanlari o'qituvchilarining nazariy, pedagogik va metodik adabiyotlar bilan o'z vaqtida tanishib borishlari, shu yo'l bilan o'z bilimlarini oshirishlari, dunyoqarashi, o'qimishli kishilarga xos jihatlarni tarbiyalashlari, kasb mahoratlarini yuksaltirishlari bevosita axborot olish madaniyatining shakllanishi bilan bog'liq. Viloyat markazlari va viloyatlarning har

bir tumanidagi tegishli maktablarda axborot-resurs markazlarining tashkil etilishi o'quvchilarga axborot olishning zamonaviy, avtomatlashgan shaklini taqdim etadi. Axborot-resurs markazlari (bundan keyin - ARM lar) zamonaviy maktab kutubxonasi misolida axborot makonining quyi bo'g'ini sifatida shakllanishi lozim. Ushbu bo'g'in qanday bo'lishi lozimligi haqida fikr yuritish alohida pedagogik masalaning yechimiga olib keladi: chunki, ayrim olimlar tomonidan axborot resurslarini parchalab yuborish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin degan fikrlar ham ilgari surilmoqda. Tan olish lozimki, maktab kutubxonalarining amaldagi kitob fondi nafaqat o'qituvchilar, balki o'quvchilarni ham qanoatlantira olmaydi. Aslida bugungi kundagi axborot makoni o'quv-tarbiya jarayonini axborot bilan muntazam ta'minlab turish imkonini berishi, shu bilan bir qatorda o'quvchilar va o'qituvchilarda axborot olish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Maktab kutubxonasi, ARM lar, tuman, shahar, viloyat markazlaridagi kutubxonalar, malaka oshirish institutlari, oliy o'quv yurtlari kutubxonalari, yirik kutubxonalar fondi tadrijiy tarzda o'zaro farqlanadi. Lekin bu fondlar kelgusida Internet saytlari orqali yagona axborot makonini hosil qila oladi. Bunday yagona makon fond resurslarini yangilash va ularni o'z vaqtida boyitib turish, Internet saytlari orqali xorijiy davlatlardagi kutubxonalar, axborot makonlari bilan bog'lanish esa mumkin hadar yer yuzining axborot makonidan xabardor bo'lib borish imkonini beradi. Biroq bu imkoniyatdan mexanik tarzda foydalanish, uni ilmiy asoslangan axborot (shu jumladan o'quv axborotlari) olish manbai sifatida taqdim etish maktab kutubxonalarining yangi modelini yaratishni taqozo etdi. Ana shu dastur asosida Sirdaryo, Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo, Toshkent, Samarqand viloyatlarida Osiyo Rivojlanish Banki bilan birgalikda ARM lar yaratilgan bo'lib, ularda keng ko'lamli tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi ushbu markazlar faoliyatini metodik jihatdan tashkil etish va boshharishi lozimligi bois muayyan nazariy-metodologik, tashkiliy-pedagogik tadbirlar, metodik ishlanmalar taqdim etildi. Ushbu markazlar sinov maskanlari sifatida faoliyat ko'rsatib, o'quvchilar uchun mo'ljallangan fondni boyitish bilan birga nazariy, pedagogik va metodik adabiyotlar resurslariga

ega bo'lish asnosida kutubxonachi va pedagoglar, o'quv fanlari o'qituvchilari o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'ymohda. Zero, kutubxona pedagogik va metodik adabiyotlar iste'molchilariga keng xizmat ko'rsata oladigan axborot- resurs markaziga aylanmas ekan, pedagoglar, o'qituvchilarning unga nisbatan ilgari shakllangan munosabatlarida jiddiy o'zgarishlarni kutish mumkin emas.

Axborot olish madaniyati o'zi nima va u kutubxonachilar va kitobxonlardan qanday bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni talab etadi?

Pedagog va o'qituvchining axborot olish madaniyatini egallash yo'lida ko'rsatadigan o'quv-biluv faoliyati o'z-o'zidan izga tushib ketmaydi, albatta. Buning uchun ma'lum miqdordagi resurslar yuzaga keltirilishi, muayyan mazmundagi qo'shimcha ta'lim zarur bo'ladi. Metodik adabiyotlarda ilgari surilgan fikrlarni umumlashtirish hamda ularni tahlil etish kitobxonlarda axborot olish madaniyatini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiquvchi omillar quyidagilardan iboratligini e'tirof etish imkonini beradi:

- ta'lim modeli o'zgarib, bir umrga yetadigan bilim olish o'rnini umr bo'yi ta'lim olish egallay boshlaganligi ;
- axborot ko'lamining jadal ortib borayotganligi;
- jamiyatning keng miqyosda axborotlashayotganligi;
- axborot olish - u bilan tanishishning o'zi emasligi;
- axborot olish oz miqdordagi adabiyotlar bilan cheklanishni ifoda etmasligi;
- axborotni imkon hadar ko'proh o'zlashtirish jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi eng muhim omil ekanligi;
- tobora taraqqiy etayotgan axborot texnikasi va texnologiyasidan foydalanilayotganligi.

Bugun kompyuterga ega bo'lgan, Internetga ulanish imkoniyati mavjud bo'lgan xonadonlar, tashkilotlarga axborot jadal kirib bormoqda. Bunday axborotlashuv jarayoni jamiyatning axborot resurslari zahirasida, ya'ni axborotlashtirilgan makonning yuzaga kelishi va kutubxonalarning yangi sharoitda innovasion faoliyat ko'rsatishi hamda shunga yarasha kitobxonning axborot olish madaniyatini egallashida o'z ifodasini topmoqda. Zamonaviy axborot makoni

kitobxonlar uchun katta imkoniyatdir. **I.G.Zaxarov**ning fikricha, "ushbu imkoniyatlardan jamiyatning yangi axborot makonida mo'ljal ola bilishga imkon beradigan zarur bilimlarga ega bo'lgan a'zolarigina oqilona foydalanadilar". Aks holda, yangilik topish ilinjida axborot ummoniga sho'ng'igan kitobxon hech narsa topolmay chiqishi mumkin. **N.I.Gendina** to'g'ri ta'kidlaganidek, "Bugun axborot jamiyatini "ta'lim oluvchi" jamiyat deb bejiz atalayotgani yo'q. Bunday deyishga quyidagilar asos bo'la oladi: axborot va bilimlar - jamiyatning bosh bunyodkor kuchi; yangilik, tezkorlik, jadallashuv - bugungi kunning eng tavsifli belgilari; xoh ishlab chiqarish, xoh ijtimoiy hayot bo'lsin texnologiyalarning yangilanish maromi olti-etti yilni tashkil etmoqda; ta'lim olishning uzluksizligi va qayta tayyorlovdan o'tishga hozirlik - shaxsning o'z ijtimoiy maqomini saqlab qolishning ajralmas qismi; har bir insonning taqdiri o'z vaqtida yangi axborotni qidirib topish, olish, mos ravishda qabul qilish va undan samarali foydalanishiga bog'liq". Respublikada "axborot olish madaniyati", axborot-resurs markazlarining paydo bo'lishi munosabati bilan esa "o'quv jarayonining metodik ta'minoti" tushunchalari keng ommalashib bormoqda.

Mutaxassislarning bergan ta'rif va izohlariga ko'ra axborot olish madaniyati quyidagilarni o'z ichiga oladi: jamiyatning axborotlashuv darajasini anglash; shaxsda axborot olishga intilishning vujudga kelishi (shaxsning sifati); axborot olishga doir bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallash; axborot vositalari manbalaridan samarali foydalanish; shaxs erkinligi, uning axborotlashgan jamiyatdagi xulq-atvori, huquqiy bilimlari.

Jamiyatning axborotlashuv darajasini anglash deganda: axborotning jamiyatda amal qilishi; yagona axborot makonining yuzaga kelishi; axborot olish imkoniyatlarining ortishi; aniq bir jamiyat, xalqlar, millatlarning axborotlashuvi; muayyan faoliyat sohalarining rivojlanish darajasini ifodalashi nazarda tutiladi. Demak, jamiyatning axborotlashuv darajasini anglash uning jadal axborotlashuvi va yagona axborot makonining yuzaga kelishi, jamiyat a'zolarining axborot oqimidagi o'zgarishlarni anglashlaridan iborat. Ta'kidlash joizki, qishloq joylaridagi maktab kutubxonalari aholiga xizmat ko'rsatish, axborot makonidan

xabardor bo'lib turish mumkin bo'lgan asosiy institut, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy muassasalardan biridir. Shaxsning ichki olamida axborot olishga bo'lgan intilishning vujudga kelishi: bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning muayyan axborot muhiti bilan o'zaro ta'siri natijasida shaxsdagi refleksiv ko'rsatmalarning o'zgarishi; ijtimoiy ahamiyatli axborotning imkon qadar kattaroq hajmini o'zlashtirish davomida shaxs ichki olamining garmonik holga kelishi; insonning ijtimoiy tabiati; ijodiy qobiliyatlarining mahsuli; insonda axborot olish sifatlarining shakllanishi; akseologik xarakterdagi axborot olish faoliyati, ya'ni qadriyatlar bilan shartlangan madaniyat; individual axborot olish faoliyatini optimal darajada amalga oshirishni ta'minlovchi bilimlar, ko'nikma va malakalarning tizimga solingan majmuidan iborat.

Shaxsning ichki olamida axborot olishga intilishning paydo bo'lishini axborotlashayotgan jamiyatga monand axborot olishga qizihish, ehtiyoj sezish, ham kasbiy, ham ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga intilish, axborot yaratish va uni uzatish, axborotni sifatli o'zlashtirish hamda undan samarali tarzda amaliy foydalanish sifatlarini namoyon etish, huquqiy savodxon bo'lish, xulq-atvor me'yorlariga amal qilish tarzida ta'riflash mumkin.

Axborot olishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni egallash: insonning axborotni o'zlashtirish saviyasi va undan foydalanish sifati; axborot olish faoliyatining sifat tavsifi (inson hayot faoliyatining axborot olish, uzatish, saqlash va undan foydalanish sohasidagi sifat tavsifi); axborot ustidagi ish turlarida: uni olish, to'plash, kodlashtirish va unga qayta ishlov berishda, shu asosda sifat jihatdan yangi axborot yaratishda, uni uzatishda, undan amaliy foydalanishda inson, jamiyat yoki muayyan qismining kamol topganlik darajasi; axborot manbalarini ongli ravishda tanlash va ularga qayta ishlov berish algoritmini egallash; kutubxonachilik-bibliografik savodxonlik, mutolaa (kitob o'qish) madaniyati, axborotlashuv jarayoni nima ekanligini va uni kutubxona joylashgan tumanda, hududda amalga oshirish xususiyatlarini bilish; axborotlashuv huquqiy maydonida, mualliflik huquqi muammolarida, so'z erkinligida, shaxsning axborot jihatdan xavfsizligida va hokazolarda mo'ljal ola bilish; "kutubxonachilik-

bibliografik bilimlar", "kitob o'qish madaniyati", "kutubxonachilik-bibliografik madaniyat", "axborot olish savodxonligi", ta'lim jarayonida axborotning roli muhim ekanligini anglab yetish, an'anaviy, elektron, tarmoqli va boshqa axborot resurslaridan majmuaviy foydalanish, o'zini axborot tashuvchisi va tarqatuvchisi deb bilish, faol axborot olish; odamning axborot jamiyatidagi xulq-atvor qoidalari majmuida namoyon bo'ladi.

Umumlashtirib izohlaganda, u axborot bilan ishlashning turli shakllarida: uni olish, to'plash, kodlashtirish va unga qayta ishlov berish, shu asosda sifat jihatdan yangi axborot yaratish, uni uzatish, undan amaliy foydalanishda inson va jamiyat a'zolari muayyan qismining barkamollik darajasi, kutubxonachilik-bibliografik bilimlar (savodxonlik), mutolaa (kitob o'hish) madaniyatining rivojlanganligini an'anaviy, elektron, tarmoqli va boshqa axborot resurslaridan majmuaviy foydalanish imkoniyatiga egalik holatini ifodalaydi.

Axborot vositalari va manbalarini ishlatish metodlarini egallaganlik: kompyuter savodxonligi; axborot makonida, uni shakllantirish va o'zaro axborot almashishda erkin mo'ljal ola bilish imkonini beradigan bilimlar va ko'nikmalar; turli moddiy axborot tashuvchilar yordamida qayd etilgan sub'ekt-sub'ekt va sub'ekt-ob'ekt munosabatlarining mohiyati; zamonaviy axborot resurslari, ayrim hujjatlar, axborot tizimidagi kutubxonalar, arxivlar, jamg'armalar, ma'lumotlar banklari tavsiya va xususiyatlarini tushunish; turli xil axborot tashuvchilardan foydalanish imkoniyatlari, axborotni to'plash, tizimga solish, saqlash va izlashning an'anaviy va elektron vositalari afzalliklari hamda kamchiliklari haqida tasavvurga ega bo'lish; zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana bilish; sun'iy intellekt tizimi bilan muloqot qilish, "ibrid intellekt" odam-mashina tizimida dialogik muloqot yuritish, telematika vositalari, global va lokal axborot-hisoblash tarmoqlaridan foydalanish, olamdagi axborot manzarasini ramzlar va belgilar, bevosita va aks axborot alohalari tizimi sifatida anglash va o'zlashtirish, axborotlashgan jamiyatda erkin mo'ljal olish, unga moslashish qobiliyati, maktabda informatikani va axborot texnologiyalarini tashkiliy suratda o'qitish va axborot uzatishning zamonaviy elektron vositalarini o'quv-tarbiya jarayoniga olib

kirish kabilarda namoyon bo'ladi. Umumlashtirib ta'riflaganda: u zamonaviy axborot resurslari, ayrim hujjatlar, axborot tizimidagi kutubxonalar, arxivlar, jamg'armalar, ma'lumotlar banklarining xarakteri va xususiyatlarini tushunish; turli xil axborot tashuvchilarini ochish imkoniyatlari, axborotni to'plash, tizimga solish, saqlash va izlashning an'anaviy va elektron vositalari afzalliklari hamda kamchiliklari haqida tasavvurga ega bo'lish; zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana bilishdan iboratdir. Kompyuter savodxonligiga ma'lum ma'noda axborot olish madaniyatini egallash harakatlarini ta'minlovchi asosiy vosita deb qarash lozim. Kompyuter savodxonligi axborotga asoslangan jamiyatda faoliyat ko'rsatish maqsadida kompyuter bilan ishlash uchun barcha zarur bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda axborot zahiralarini elektron tashuvchilarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. "Axborot olish madaniyati" tushunchasi tarkibiga kirgan "axborotni sifatli o'zlashtirish hamda samarali tarzda amaliy foydalanish"ga shunchaki kerakli adabiyotlarni o'qish bilangina erishish mumkin emas. Bu o'rinda axborotni tezkor qayd etish, unga ishlov berish katta ahamiyatga ega. Agar axborot sifatsiz qayd etilsa, keyinchalik undan foydalanish imkoniyati cheklanadi. Masalan, pedagog yoki o'qituvchi axborot manbaini ko'rsatmagan bo'lsa, ko'chirmalar uzuq-yuluq, ilmiy zamini tushirib qoldirib olingan bo'lsa, ushbu axborotdan o'z ijod mahsulini ilmiy asoslashda (maqola yoki qo'llanmada shu manbaga ilova sifatida tayanishda) foydalana olmaydi, demak, kasb mahoratini oshirishda kutilganidek natijaga erishish mumkin emas. Boshqacha aytganda, axborotni qayta izlash va undan ko'chirmalar olish muammosi yuzaga keladi. Skaner va printer kompyuter orqali oz fursatda ko'chirmalarni olish va qaydlash imkonini beradi. Ushbu qaydlar kompyuter xotirasidan tashqari, disket va kompakt-disklarda saqlanadi. Bular shaxsning axborotni "o'zlashtirish saviyasi", "undan foydalanish sifati"ni ta'minlab, ularning sifatli egallanishini ta'minlaydi.

Axborot olish madaniyatining zamonaviy talqini eski, ustun darajada kitobiy kutubxonachilik madaniyati hamda yangi axborot texnologiyalari ("ekran madaniyati", "kompyuter madaniyati") bilan bog'liq madaniyat sintezini ko'zda

tutadi. Shaxsning axborot olish madaniyati - bu inson umumiy madaniyatining tarkibiy qismlaridan biridir.

Axborot olish madaniyati axborot olish faoliyatiga bo'lgan qiziqish kabi ruhiy holatdan tashqari quyidagi tushunchalarni ham o'z ichiga oladi:

- ta'lim jarayonida uning muhim ahamiyatga ega ekanligini anglab yetish;
- axborot manbalarini ongli ravishda tanlash va ularga qayta ishlov berish algoritmini egallash;
- an'anaviy, elektron, tarmoqli va boshqa axborot resurslaridan kompleks foydalanish;
- o'zini axborotning tashuvchisi va tarqatuvchisi deb bilish, faol axborot olish kabilar.

Lekin bugungi kunda pedagoglar, o'quv fanlari o'qituvchilari uchun axborot manbai bo'lmish kutubxonadan foydalanishga qiziqishning o'zi kifoya qilmaydi, bunga qo'shimcha ravishda ularda kerakli axborotning topilishiga ishonch ham bo'lishi zarur. Axborot olish madaniyati - axborotni to'plash, tizimga solish, sahlash va izlashning an'anaviy va elektron vositalari afzalliklari va kamchiliklari haqida tasavvurga ega bo'lish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish faoliyati zahirida qo'lga kiritiladi. O'qituvchi o'tgan asrning 90-yillarga qadar darslikdagi bilimlarni tushuntiruvchi, shu bilimlarni mustahkamlash va vaqti-vaqti bilan takrorlash ishlarini uyushtiruvchi, ayrim hollardagina muammoli ta'lim asosida ushbu bilimlarni tadqiq etish vaziyatini yuzaga keltiruvchi sifatida ish ko'rgan bo'lsa, shu tariqa maktabni tamomlagan yoshlarda mustahil mutolaa malakasi yetarlicha hosil bo'lmagan bo'lsa, bugun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" o'quvchilarning mustahil fikrlashiga e'tiborni kuchaytirishni shart hilib ho'ydi. Buning uchun esa ularni ta'lim oluvchi sub'ektga to'g'ri ma'noda aylantirish kerakligi hammaga ayon haqiqatga aylandi.

O'quvchi axborot olish madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Buni pedagogik jihatdan izohlaydigan bo'lsak, u muayyan bilimlar majmui bo'lgan kitob (elektron manba)ni topa oladigan bo'lishi, qayerdan va qanday izlashni bilishi, buni amalga oshirishi, kitobni savodli mutolaa qilishi, ya'ni uni qayta-qayta o'qish harakatini

kamaytirib, kerakli ma'lumotlarni bir o'qishdayoq ko'proq ola bilish, bu ma'lumotlarni ko'proq qayd eta olishga ulgurishi, ularni foydalanish uchun qulay holatga keltirishi zarur. Albatta, o'quvchi, hatto o'qituvchi ham bu darajaga birdaniga erisha olmaydi. Bunga muayyan tajriba to'plash asosida erishiladi.

"Axborot olish madaniyati" tushunchasining talqini muammoga oydinlik kiritish imkonini berdi. Navbatdagi masala - axborot olish madaniyatini egallash, axborot yordamida ijtimoiylashuv uchun shaxs qanday bilim, ko'nikma va malakalarni qo'lga kiritishi lozimligi, ularni qayerda, qaysi usullar bilan egallash mumkinligi, amaliyotda qo'llash uchun nimalar qilish zarurligi masalasidir. Kitobxonning ijtimoiylashuvi axborot olish madaniyatining shakllanishida muhim o'rin tutadi. V.A.Borodinaning bergan ta'rifiga ko'ra, "Kutubxona - ijtimoiy institut, kutubxona xizmati esa -sub'ektlarni kutubxonalar tizimi orqali ijtimoiylashtirishga qaratilgan faoliyat" . Boshqacha aytganda, ijtimoiy institut kitobxonni ijtimoiylashtirish uchun xizmat qiladi. Bizningcha, kitobxonning ijtimoiylashuvi deganda, insoniyat tomonidan to'plangan kitobxonlik tajribasini egallash jarayoni va shu jarayonda erishilgan natijalarni o'zlashtirish tushuniladi. Kitobxonlikning ijtimoiylashuvi murakkab pedagogik-psixologik hodisa bo'lib, mutolaa ko'nikmalarining shakllanishidan tashqari, uning natijasi, usuli, shaxsda axborotga nisbatan munosabatning hosil bo'lishida ham ifodalanadi. Kitobxonning ijtimoiylashuvi - ijtimoiy-tarixiy hamda pedagogik zarurat. Jadal axborotlashayotgan jamiyatda shaxsning axborot olish madaniyatini shakllantirish, ijtimoiylashuviga erishish zarurati kitob va uning o'rnini bosadigan bilim manbalarining tobora ortib borayotganligi, ushbu manbalar sirasiga Internet tarmog'i kelib qo'shilgani sababli mutolaa savodxonligini egallash yoshlarda qisqa vaht sarflab, ko'p narsani bilib olish ko'nikmasini egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi.Yaqin-yaqinlargacha bola dunyoga kelgach, avval bolalar bohchasida bo'lishi, keyin maktabda ta'lim olishi, ulhayib o'rta maxsus yoki oliy o'quv yurtida tahsil ko'rishi, so'ngra mutaxassis sifatida har uch yoki besh yilda bir marta malaka oshirib turishi, o'z ustida ishlashi odatiy bir holga aylangan edi, ya'ni, maktabgacha ta'lim muassasalarida ham, maktabda ham, oliy o'quv yurtida

ham unga bilim berilar edi. Axborotlashgan jamiyatda axborot olish madaniyati ta'lim berishni emas, ta'lim olish yo'llarini o'rgatishni taqozo etmoqda. Ta'limning yangi texnologiyalari, innovasion shakllari o'quv jarayoniga chuqurroq kirib bormoqda. Insoniyat tomonidan yaratilayotgan bilimlar zaxirasi ko'paymohda, ularni o'zlashtirish imkoniyati esa deyarli o'zgarishsiz qolmoqda. Zero, axborotning katta oqimi va u bilan tanishish imkoniyatlarining o'zaro chegaralanganligi natijasida yuzaga keladigan ziddiyat axborot olish madaniyatini egallash orqaligina bartaraf etilishi mumkin. Buning uchun kutubxonachilar, ta'lim muassasalari mutaxassislari, metodist olimlar oldiga ta'lim oluvchilarga bilim berishgina emas, balki, eng avvalo, ularni bilim olishga, ya'ni axborotni topish, ajratib olish va ulardan foydalanishga o'rgatish masalasini yechish vazifasi qo'yilmohda. Lekin buning uchun pedagogning o'zi axborot olishga doir bilim va ko'nikmalarga ega bo'libgina qolmay, ularni o'zgalarga uzatish borasida ham alohida ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak. Bugungi kunda har bir insonga axborot olish madaniyatini egallash zaruriyati tutilgan bir paytda kutubxonachilarda o'rgatuvchilik imkoniyatining ortishi, u o'quvchilarga ham, o'qituvchilarga ham kutubxonachilik sohasidagi yangiliklarni yetkazib turishi, an'anaviy kataloglar hatori elektron kataloglarning yuzaga kelayotganligi, kutubxonachi bunday kataloglarning imkoniyatlaridan kitobxonlarni voqif etib borishi talab etiladi. Iste'molchini yuksak darajada avtomatlashgan axborot muhitidagi yangicha ish sharoiti va kasbiy faoliyat, ushbu muhitda mustahil harakat qilish, ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanishga o'z vahtida o'rgatish muammosi mavjud. Ana shu ta'limiy jarayon pirovardida shaxsning axborot dunyoharashi yuzaga keladi.

N.I.Gendina axborot dunyoqarashi tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Axborot dunyoharashi - axborot olish, uning resurslarini bilish, axborot tizimlari, texnologiyalari, axborotlashuv, axborotlashgan jamiyat va insonning undagi o'rni, odamlarning o'zlarini qurshab olgan axborotlashgan muhitga munosabati, umumlashgan qarashlar tizimi, shuningdek, bilish va faoliyatning shu qarashlar bilan shartlangan e'tiqodlari, ideallari, prinsiplaridir". Axborot olishga doir bilim,

ko'nikma va malakalar tizimiga kutubxonachilik-bibliografik manbalardan tegishli adabiyotlar haqidagi ma'lumotlarni mustaqil ravishda qidirish va topa olish, an'anaviy va yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda axborotni tahlil qilish va sintezlash sirasida axborot dunyoqarashi axborot olish madaniyatining muhim komponentlari kiradi. "Axborot dunyoqarashi, - deb yozadi N.Gendina, - kishining axborot va axborot resurslari, axborotning hozirgi zamon jamiyati hayotidagi o'rnini, maxsus axborot olish tayyorgarligidan o'tish zaruratiga ongli munosabatini tavsiflovchi qarashlar tizimidir". Kutubxonachining axborot dunyoqarashi o'quv fani o'qituvchisining axborot dunyoqarashidan ancha keng, chunki u muayyan axborot makonida yashaydi va hamma vaqt yangi axborot yangiliklaridan voqif bo'lib turadi. Maktab kutubxonachisiga an'anaviy kutubxonachilik - bibliografik manbalar, kitob fondi yaqindir.

Bugungi kutubxona unga elektron adabiyotlar kirib kelayotganligi va Internet tarmog'iga ulanish ishlari joriy etilayotganligi uchun ham o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Lekin, S.I.Maksimovanning ta'kidlashicha, "Elektron nashrlar o'z ustuvorliklari va kamchiliklariga ega. Ular "yemirilish" va eskirishdan xoli tarzda buyurtmachiga darhol yetkazib beriladi. Uydagi elektron kutubxona odatdagidan maqbul - ko'p o'rin olmaydi, parvarish talab qilmaydi, qulay: kerakli kitobni soniyalar ichida topish mumkin. Elektron matnlar iqtisodiy foydali - bosmaxona xarajatlari yo'q, olish va saqlash arzon tushadi, ekologik ustunliklari bor. Bu matnlarga annotasiya yozish va ularni tahrir qilish oson, o'z mulohazalarini va sharhlarini kiritish jo'n". Axborot olishga ehtiyoj unga doir bilimlarning yetishmayotganligini anglash asosida yuzaga keladi. Ehtiyoj kitobxonni axborot izlashga undaydi. U o'z oldiga har doim "Axborotni qayerdan izlash mumkin" degan savolni qo'yishi lozim. Axborotlar iste'molchining shaxsiy kutubxonasi, hududiy kutubxonalar, kitob do'konlari, o'rta va yirik kutubxonalar hamda Internetdan izlanadi.

Bugungi kunda zamonaviy kutubxonaning jamiyat talablariga mos keladigan yangi qiyofasini shakllantirish jarayoni kechayapti, ta'limni axborotlashtirish strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilyaptiki, bu o'zgarishlar yaqin kelajakda ta'lim

sohasidagi mavjud axborot markazlari va umumta'lim muassasalari kutubxonalarini o'zaro birlashtiradigan yagona kompyuter tarmog'ini yaratish ishlarini amalga oshirish imkonini beradi. Kutubxonaning tarkib topishi kecha va bugun bilangina bog'lanmaydi. Bu olis tarixga borib taqaladi. Uzoh o'tmishda, aniqrohi, temuriylar davrida mamlakat poytaxti Samarqanddagi saroy kutubxonasi juda mashhur bo'lib, bu yerda yunon, lotin, arab, arman, fors va boshqa tillardagi eng nodir qo'lyozmalar saqlangan. Yirik davlat arbobi, olim, mutafakkir Amir Temur uchun kitob ulug' tarbiyachi va ustoz vazifasini o'tagan. Abu Ali ibn Sino, Qozizoda Rumiy, Mirzo Uluhbek, buyuk shoir Alisher Navoiy kutubxonadan foydalanib kamol topganlar. Lekin bugungi kutubxona kechagi kutubxonaning aynan o'zi emas. Bugun ushbu maskan adabiyotlarga boyib, kitob tanlash, kitob berish jarayonlari ma'lum darajada avtomatlashtirilib borilmoqda. Kutubxonaga elektron kataloglar va hujjatlarning kirib kelishi esa axborotlashuv jarayonini yana ham jadallashtirmoqda.

Axborotlashuv - fuqarolarning axborot olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda pedagogik jihatdan uyushtirilgan jarayondir. Shu maqsadda axborotlashgan makon yuzaga keltirilmoqda. Axborotlarning kitob, gazeta va jurnallardan tashqari, elektron xotiralarga joylashtirilayotganligi ana shu makonning zamon bilan bog'liq muhim elementi sanaladi. Metodik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, axborotlashuv tushunchasi kompyuterlashtirish, elektronlashtirish, avtomatlashtirish tushunchalariga qaraganda kengroqdir. Axborotlashuv bugungi odamlarning geografik omillardan hat'iy nazar axborotga erkin, tezkor kirib borishlarini ta'minlash hisobiga ularning mehnat va turmush sifatini yaxshilashga qaratilgandir. Internet tarmog'I axborotni ish joyidan uzohlashmagan holda, respublikamizdagi yirik kutubxonalar, yer yuzining turli chekkalaridagi kutubxonalar, saytlardan olish imkonini beradi. Lekin elektron adabiyotlar bilan ishlashning murakkabligi shundaki, hamma ham elektron formatga ko'chirilgan matnlarni o'qish imkonini beruvchi personal kompyuter va elektron kitoblarga ega emas. Shu bilan bir qatorda kitobxonlarda elektron nashrlar bilan ishlash madaniyati yetarlicha shakllanmagan, chunki ular

asosan bosma mahsulotlar bilan ishlashga odatlanib qolganlar. Ekrandan o'qish varaqdan o'qishga haraganda ba'zi nohulayliklarga ega. holaversa, elektron nashrlarning o'zi hali ko'p emas, binobarin, ularni tanlash imkoniyati kamroq. Shunga qaramay, badiiy asarlar, qomuslar, lug'atlar, gazeta va jurnallarning tobora katta qismi matniy fayllar ko'rinishida tarqalmoqda. Elektron va bosma nashrlar bir-birini mustasno etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi, binobarin, kelajakda kutubxonalarda ham virtual, ham an'anaviy kitobga joy topiladi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, kitobxon texnik va ma'lumotnoma adabiyotlarni ko'proq elektron shaklda oladi, badiiy asarlarni esa bosma shaklda xarid qiladi. Axborot jamharmalari muayyan tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. O'tgan asrning 90-yillariga qadar badiiy asarlar kam bo'lgani uchun yangi asar paydo bo'lishi bilan ular alohida intiqlik bilan o'qilar, qo'lma-qo'l bo'lib ketar edi. Chunki mavjud badiiy asarlar fondidan aholi, jumladan o'quvchilar ham xabardor edi. Nazariy, pedagogik va metodik adabiyotlar esa nihoyatda kam miqdorda yaratilgan. Bunday vaziyatda kutubxonachilik-bibliografik ishlarning maktab kutubxonalariga kirib borishi uchun ehtiyoj kam edi. Bugungi kunga kelib vaziyat tamoman o'zgardi. Badiiy asarlar ham, nazariy, pedagogik va metodik adabiyotlar ham ko'paymoqda. Jamiyat hayotiga Internetning kirib kelishi jahonda pedagogika sohasida olib borilayotgan izlanish natijalaridan foydalanish uchun keng yo'l ochdi. O'quv fani o'qituvchisining o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish sifati va samaradorligiga qo'yiladigan talablar kun sayin ortib bormoqda, ilg'or pedagogik texnologiya darajasida dars berish zarurati paydo bo'ldi. Bu texnologiyaning mohiyati shundaki, o'qituvchining shunchaki metodik qurollangani emas, balki ta'lim mazmuni va metodlarini ilmiy asoslab bera oladigan darajada egallangani hisobga olina boshlandi. Kutubxonachi kutubxona fondini boyitishdan tashqari, kutubxonachilik-bibliografik savodxonlikni targ'ib qilish borasida o'quv fani o'qituvchisi bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'qituvchi oliy o'quv yurtida ta'lim olish jarayonida kutubxonadan foydalanish haqida muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Shunday bo'lsa-da, hozir har jabhada kechayotgan texnik-

texnologik taraqqiyot, axborotlashtirish, avtomatlashtirish jarayoni tufayli, bu borada ham yangi bilimlar bilan qurollanish taqozo etiladi. Bu o'zgarishlarga eng yaqin turgan, xabardor mutaxassis - kutubxonachidir. Maktabda, ayniqsa, shahardan olisroqdagi umumta'lim muassasasida mehnat qilayotgan o'qituvchi esa bulardan yetarlicha va o'z vaqtida xabar topmaydi. Shunday ekan, axborot olish madaniyatini egallashga kirishgan va uni pedagoglar orasida targ'ib qilishga mas'ul bo'lgan kutubxonachi va o'quv fanlari o'qituvchilarining hamjihatlikdagi faoliyati zamon talabidir.

Kutubxonachining kasbiy tayyorgarligini oshirish, o'quvchi va o'qituvchilarning axborot olish madaniyatini shakllantirish zarurligi munosabati bilan, dastavval, o'quv fanlari o'qituvchilarini axborot resurslaridan unumli foydalanishga o'rgatish mazmuni va metodlarini belgilash lozim. Zotan, egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar oz emas, ular hal etiladigan muammolar sirasida yaxlit bir tizim holida taqdim etilishi kerak. Mutolaa madaniyati kelgusidagi kasbiy tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismidir. Bugungi kunda o'qituvchining ham, o'quvchilarning ham kitob o'qishi, ma'lumotlar saqlanuvchi elektron fondlardan foydalana bilishi, axborotlashgan makonda mo'ljal topa olishi uzluksiz ta'lim tizimining muhim unsuri, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishning garovi hisoblanadi. Bu ishlar o'quvchilar, o'qituvchilar va kutubxonachining hamkorligi orqali ro'yobga chiqariladi. Ushbu muammo pedagogik adabiyotlarda qay darajada hal etilganligi, yoritilganligini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda kutubxonagakirmay, kitob o'himay, umumiy o'rta ta'lim olmay, hayot sari qadam qo'yayotgan yoshlarning o'zi yo'q. O'z kasbiga oid adabiyotlar, davriy matbuot materiallarini ko'zdan kechirmay mehnat qilayotgan mutaxassisni ham topish qiyin. Lekin asosiy masala ular mavjud axborotlardan qanchalik unumli foydalana olayotganliklaridadir. Muammo davlat miqyosida o'z vaqtida anglangani uchun ham kutubxona tarmoqlarini rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining bir qator farmonlari va qarorlari qabul qilindi. Zotan, bugungi kunda

axborot olish madaniyati umuman jamiyat, shuningdek, turli ijtimoiy guruhlar, ayrim shaxslar ma'naviy madaniyatining muhim bir qismiga aylanishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda maktab va kollej o'quvchilarining axborot olish madaniyatini qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida psixologik test o'tkazdim. Birinch marta olingan test natijalariga ko'ra o'quvchilarning asosan internet orqali axborot olishlari aniqlandi, ammo bir necha marotaba o'tkazilgan suhbatlardan so'ng olingan test natijalaridagi ko'rsatkichlar ancha ijobiy tarafga o'zgardi (*2-ilovaga qarang*). Bu tadqiqot natijasidan xulosa chiqarib shuni aytishim mumkinki, infoetikani shakllantiruvchi metodlarni pedagogik jarayon bilan uyg'unlashtirish kerak. Chunki qisqa vaqt ichida o'quvchilar bilan olib borilgan suhbatlar natijasida ulardagi axborot olishga bo'lgan munosabatning ijobiy tarafga o'zgarganini ko'rishimiz mumkin (*2-ilovaga qarang*). O'quvchilardagi tahlil va talqinlar shaxsning axborot olish madaniyatining quyidagi tarkibiy elementlarni ajratish imkonini berdi:

- 1) ta'lim sub'ektlarining kutubxonachilik-bibliografik savodxonlikka ega bo'lishi;
- 2) kompyuter savodxonligini egallash;
- 3) axborot manbalarini tanlash, axborot olishda savodxon bo'lish (mutolaa madaniyati);
- 4) o'quv va o'quv-biluv faoliyatida axborot manbalariga tahliliy-sintetik qayta ishlov bera olish, ta'lim olish jarayonida matndan foydalana bilish;
- 5) kutubxonachilik-bibliografik va axborot olishga doir bilimlarni targ'ib qilish;
- 6) belgilangan standartlar asosida axborotlar monitoringini amalga oshira bilish;
- 7) axborot makonidagi xulq-atvor qoidalari majmuiga amal qilish

Xullas, infoetika yoxud axborot qabul qilish madaniyatini shakllantirish barkamol avlodni voyaga yetkazishning muhim omillaridandir.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Bugun jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayoni odamlarning axborot olishga bo'lgan talabini oshirmoqda. Qaysi ko'rinishda bo'lishidan, qanday maqsadga xizmat qilishidan qat'i nazar, axborot va uni yetkazuvchi vositalarning bozori chaqqonlashgan. Dunyoning ayrim davlatlari esa o'z manfaatlariga xizmat qiladigan axborot — tovarni tarqatmoqda, «iste'molchi mamlakatlar»ga zo'r berib «eksport» qilmoqda. Bu xatti-harakatlar tobora mafkuraviy — g'oyaviy tus ola boshladi va oqibatda jahon jamoatchiligini xolis, haqqoniy, eng muhimi, voqelikka asoslangan axborot bilan ta'minlash masalasi o'tkir muammoga aylanmoqda.

Olib borilgan tadqiqotimiz natijasi ham shuni ko'rsatib turibdiki, bugungi yoshlarning aksariyati asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qilishadi. Lekin ularning ayrimlarida hali axborot immuniteti shakllanmaganli sabablimi, mish-mishlar dunyosi bo'lmish "Internet" orqali ma'naviyatga salbiy ta'sir qilish hollari ko'p uchramoqda. Nega salbiy ta'sir qiladi? Demak, yoshlarimiz ayniqsa, maktab va kollej o'quvchilarining ko'pchiligi kelayotgan axborotlarni saralamasdan, qo'pol qilib aytganda “filtrlamasdan” qabul qilishadi. Bu esa axborot olish madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligidan dalolat beradi.

Bundan kelib chiqib, shaxsda axborot olish jarayoninig turli xil jihatlarini o'rginish, aniqlangan salbiy jihatlariga qarshi pedagogik chora- tadbirlarni ishlab chiqish, axborot olish madaniyati tushunchasini pedagogik jihatdan tadqiq etish va shaxsda axborot olish madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik jarayonning mazmuni, shakli, vosita va metodlarini puxta ishlab chiqish kerakligini aytishimiz mumkin.

Bugungi kunda yoshlarimiz - turli xil g'arb seriallari ta'sirida, milliy qahramonlarimiz jasoratidan bexabar o'sayotganligi sababli yoshlarning ma'naviyatiga qaytadan chuqur e'tibor qaratmas ekanmiz, ularning zehni o'tkir, dunyo bilimlarini egallagan bo'lishlariga qaramasdan, Vatan manfaati yo'lida xizmat qilishlariga, begona g'oyalarga berilmasliklariga kafolat bera olmaymiz. Shuning uchun o'quvchilarda eng avvalo aksiologik ongni, ya'ni Vatanga e'tiqodni, urf-odat

va qadriyatimizga sadoqatli qilib tarbiyalashimiz lozim, ana shundagina ularda istalgan buzg'unchi axborotlarga nisbatan o'z immunitetlari shakllanadi.

Axborot turli ijtimoiy qatlamlarga, professional va milliy guruhlariga har xil ta'sir etishi hamda uni iste'mol qilish ham bir-biridan farq qilganligi bois, kishilarda, ayniqsa, yoshlarda axborotni saralay olish, ya'ni axborot iste'moli madaniyatini yuksak darajada shakllantirish uchun, eng avvalo, yosh yigit-qizlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, fidoyilik tuyg'ularini uyg'otish muhim. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yildagi "Kamolot" YIXni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish to'g'risidagi Farmonida uqtirilganidek, "har tomonlama komil va barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir".

Yosh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo'lishi lozimki, ular virtual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Faqat shundagina, globallashuv jarayonlarida yoshlarning ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashish, ularni noto'g'ri talqin qilishining oldi olinadi. Axborot iste'moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta'siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

Ushbu xulosadan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalarni berib o'taman:

1. Pedagogika va psixologiya fanlarini "axborot oilsh madaniyati" tushunchasining pedagogik talqini va metod, vositalari bilan boyitish;
2. "Infoetika" tushunchasini pedagogik fanlar tarkibida o'rganishni joriy etish;
3. Kompyuterlarga o'rnatilishi mumkin bo'lgan "Kiberpatrul" va "Kidskontrol" kabi mahsus dasturlarni qo'llanilishi uchun aholiga kengroq yo'l ochib berish va bu dasturlarni sotib olish uchun ota-onalarga qulayliklar yaratish;
4. Aynan mana shunday taqiqlov dasturlarini o'quvchilardagi uyali telefon aparatlariga ham o'rnatishni joriy etish;
5. Ota-onalarning kompyuter savodxonliklarini oshirishlari haqida joylarda suhbatlar o'tkazish.

Adabiyotlar ro'yxati.

Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T: Fan, 2003.
3. 2012 yil 16-17 fevral kunlari Toshkentda o'tkazilgan konferensiya ma'lumotlari: "Ma'lumotli va intellektual rivojlangan avlodni tayyorlash – mamlakatni barqaror rivojlantirish va zamonaviylashtirishning eng muhim sharti sifatida" .Virtual kutubxona.uz
4. Karimov I.A. Istiqlol va mafkura. -T: O'zbekiston, 1994.-160 b.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston kelajagining poydevori. - T.1997.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T: O'zbekiston, 1997. -326 b.
7. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q . -T: Sharq, 1998. -31 b
8. Karimov I.A. O'zbekistonda Demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. -T: Turkiston, 2002. 31 avgust.
9. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T: O'zbekiston, 2005. -96 b.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
11. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T: O'zbekiston, 2011. -440 b.
12. Ayupov L. Kibernetik axborot ko'rsatkichlar. -T: Fan, 1973. -85 b.
13. Aripov M.va boshqalar. Основы Интернет. -T: Университет, 2002.-175 b.

14. Akbarov D.Y. Axborot xavfsizligini ta'minlashning kriptografik usullari va ularning qo'llanilishi. -T: O'zbekiston markazi, 2009. -432 b.
15. Ananyev B.G. Человек как предмет познания. - Санкт- Петербург: Питер, 2001. --125 с.
16. A'zam T. Yoshlar ma'naviyatini oshirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni. -T: Ma'naviyat, 2012. -67 b.
17. Axborot – kutubxona va axborot resurs markazalari ishini tashkil qilish.- T: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. -71 b.
18. Axborot xatlar. -T: 1952. -296 b.
19. Axborot tizimlari va texnologiyalari. -T: Sharq, 2000. -592 b.
20. Burlachuk F. Психодиагностика. - Санкт- Петербург: Питер, 2002. -57 с.
21. Do'stmuhammedov H. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. -T: O'zbekiston, 2005. -516 b.
22. Hamdamov P.X. Qobilov.S.S Проблемы внедрения новых информационных технологий в высшем образовании и пути их решения. «Ta'lim muammolari». 2000. - № 4. 12 с.
23. Layderman A. Axborotdagi chigalliklar. -T: O'zbekiston, 1973. -46 b.
24. Mo'minov A.N. Axborotlashtirish va hayot. -T: Fan, 1992. -714 b.
25. Mustaqillik sharoitida madaniyat va san'at bo'yicha axborot xizmati. -T: Fan, 1993. –46 b.
26. Mavlonov O.M. Mustaqil bilim olish va bilimni baholashning ko'p axborotli test uslubi. -T: Universitet, 1995. -1916 b.
27. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T: O'zbekiston, 2000.68-b.
28. Milliy istiqlol g'oyasi. Ergashev I tahriri ostida. -T: Akademiya, 2005. -45 b.
29. NirVulkan. Электронная коммерция. Стратегическое руководство для понимания и построения торговли в режиме «Online». (Перевод с англ.языка.Princeton University Press). М.: Интернет-трейдинг. 2003.
30. Ommaviy axborot vositalari tipologiyasi. –T, 2000. -566 b.

31. Qog'ozsiz axborot tashuvchilar. - T: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. -1014 b.
32. Qosimova Z. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishning uslub va vositalari. -T: San'at jurnali" 2007. -35 b.
33. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. -T.: Fan, 2004. - 190 b.
34. "Uzluqli axborot uzatish" kursidan o'quv qo'llanma. -T: Fan, 1996. -56 b.
35. Usmonova N. Eng yaxshi o'quv- axborot resurslari. -T, 2012. -4 b.
36. G'afforova G.F. Axborot va axborotlashtirish jarayonlarining falsafiy-metodologik muammolari. -T: Fan, 2008. -1606 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Lojkin G.V. Повякель Н.И Практическая психология в системах "человек техника": Учеб.пособие.- К: МАУП, 2003, -296 с.
2. Nargiza Ibrohimova. Internet hammasi: xavf va himoya. Ma'rifat, 19.09.2010.
3. Психология и педагогика. Под редакцией А.А.Радугина. Изд. Центр, 2003.
4. Психология и педагогика. Под редакцией А.А.Радугина. Изд. Центр, 2003.
5. Umurov H. Studentlarni ilmiy – tadqiqot ishlariga o'rgatish yuzasidan metodik tavsiyalar, Samarqand,1980.
6. G'oziyev E.G Muomala psixologiyasi. -T, 2001.
7. G'oziyev E.G. Toshimov. R. Menejment psixologiyasi. -T, 2001 -23 b.
8. G'oziyev E.G . Umumiy psixologiya. -T, 2002.1-2 kitob.

Internet saytlari:

1. WWW.ZiyoNet.uz
2. WWW.expert.psychology.ru

3. WWW.psycho.all.ru
4. WWW.psy.piter.com
5. WWW.Farzand.uz
6. WWW.Fikr.uz
7. WWW.Texnology.gb
8. WWW.cambridge.university.com
9. [www. inter – pedagogika. ru.](http://www.inter-pedagogika.ru)
10. www.ppf.uni.udm.ru
11. www.search.re.uz – O'zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi
12. www.ictcouncil.gov.uz- kompyuterlashtirishni rivojlantirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasi muvofiqlashtiruvchi kengashining sayti.

ILOVALAR

■

Ishlab chiqarish amaliyoti davrida (30.I.2012 -26.III.2012) tajriba
maskanlarida olib borilgan tadqiqotlardan namuna

Assalomu alaykum!

Sizning e'tiboringizga havola etilayotgan ushbu anketa o'smir yoshlarning internetga bo'lgan munosabatlarini o'rganib chiqishga mo'ljallangan. Anketani o'qib chiqib, ulardagi savollarga berilgan javoblardan birini tanlab, javob to'g'risidagi harfni belgilab qo'yishingizni so'raymiz. Mabodo javoblar sizni qoniqtirmasa, mavjud javoblarning tagidagi bo'sh joyga o'z fikringizni yozib qo'yishingizni iltimos qilamiz.

1. Jinsingiz

2. Yoshingiz

3. Bo'sh vaqtni qanday o'tkazasiz?

- a) Do'stlar davrasida "odnoklassniki.uz"
- b) Internetdan qiziqarli habarlar olish
- c) Musiqa tinglash, kitob o'qish
- d) _____

4. Qiziqishingiz?

- a) Internetdagi yangiliklarga
- b) Modalar namoyishiga
- c) Kitob o'qishga
- d) _____

5. Qiziqishingiz yoki sohangiz bo'yicha ma'lumotlarni ko'proq qayerdan olasiz?

- a) Gazeta va jurnallardan
- b) Internetdan
- c) Kitoblardan
- d) _____

6. Iternetdagi ma'lumotlarga ishonlasizmi?

- a) Ha
- b) Yo'q
- c) Har doim emas

d) _____

7. Internetdan har doim foydalanasizmi?

- a) Ha
- b) Yo'q
- c) Bazida
- d) _____

8. Radio televideniya'dagi yangiliklar bilan tanishasizmi?

- a) Har kuni
- b) To'g'ri kelsa
- c) Ular men uchun qiziq emas
- d) _____

9. Internetdagi bazi bir "ko'ngilochar" dasturlar va ma'lumotlarga munosabatingiz...

- a) Bu faqat miyani zaharlaydi
- b) Kishi kayfiyatini ko'taradi
- c) Bo'sh vaqtda foydalansa bo'ladi
- d) _____

10. Interdan necha yoshdan foydalangan ma'qulroq deb o'ylaysiz?

- a) Kichik maktab yoshidan
- b) Maktabni yuqori sinf yoshidan
- c) Kollej – litsey o'quvchilari uchun zarur
- d) _____

11. Internetdagi ma'lumotlarni necha foiz kafolatlay olasiz?

- a) 50% yoki undan past
- b) 100%
- c) 70-80%
- d) _____

12. Dunyoqarashni kengaytirishda ommaviy axborot vositalarining qaysi birini roli kattaroq?

- a) Internet
- b) Matbuot
- c) Radio televideniya
- d) _____

13. Birdan bir badiiy asarni internetda o'qiganingiz ma'qulmi yoki kitobdanmi?

- a) Kitobdan

b) Internetdan

c) _____

E'tiboringiz uchun rahmat!


TEST NATIJALARI

A	B	C	D	JAMI
5	4	6	3	-----

30-55- Siz har doim vaziyatga qarab ish tutasiz. Sizga biror ma'lumot kerak bo'lsa faqat internet ma'lumotlariga ishonibgina qolmay, taqqoslash maqsadida kitoblardan ham izlab ko'rasiz.

56-75- Siz vaqtni juda ham tejaydigan insonlar toifasiga kirasiz. Kitob varaqlab vaqt ketkazgandan ko'ra kerakli ma'lumotlarni tezda internetdan olishni avzal bilasiz.

76-100- Siz yeti o'lchab, bir kesadigan insonlar toifasidansiz. Internetdagi ma'lumotlarga unchalik ishonmaysiz. Agar bu ma'lumotlar to'g'ri deb aytishsa ham, kitoblarda mukammal ma'lumot berilgan deb hisoblaysiz. Shuning uchun doim kitoblardan foydalanasiz.



Glossariy

1. **Axborot** - borliqdagi narsa yoki jarayonlarning holatlari, xossalari va boshqa xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarning turli vosita va sezgi a'zolarimiz orqali bizga yetib kelishi.
2. **Axborot dunyoqarashi** - kishining axborot va axborot resurslari, axborotning hozirgi zamon jamiyati hayotidagi o'rni, maxsus axborot olish tayyorgarligidan o'tish zaruratiga ongli munosabatini tavsiflovchi qarashlar tizimi.
3. **Axborotlashuv** - fuqarolarning axborot olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda pedagogik jihatdan uyushtirilgan jarayondir.
4. **Axborot xavfsizligini ta'minlash** - axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalangan holati.
5. **Analog** – uzluksiz axborot (ob-havo holati yoki vaqt bunga misol bo'la oladi).
6. **Addiksiya** – biror narsaga o'zini unutar darajada qiziqib ketish, ishtiyoqmandlikni anglatadi.
7. **Antiterroristik harakatlar** - kiberterroristik harakatlarga qarshi kurash olib borish.
8. **Axborot qurollari** - kompyuter viruslari, mantiqiy bombalar, test dasturlarini ishdan chiqaruvchi vositalar, axborot ayriboshlashni yo'q qiluvchi vositalar
9. **Adaptiv** – axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o'rganish hamda o'rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.
10. **Diskret** – uzlukli axborot (bunga yurak urishi yoki nafas olishni misol keltirishimiz mumkin).

- 11.Egosentrizm** – inson o‘zini barcha voqea – hodisalarning qahramoni sifatida his qilishi.
- 12."Globalizatsiya"** - "gloub" (inglizchadan "globe", ya'ni yer shari), "global" ("global", ya'ni butun dunyoga tegishli) va "globallashuv" ("globalize", ya'ni butun dunyoga tarqalishi) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, butun dunyo aholisining bir ijtimoiy tuzum ostiga birlashishi, bir xil vazifa bajarishi degan ma'noni anglatadi.
- 13.Grifing** – internet orqali ta'qib etish.
- 14.Infoetika** - axborot qabul qilish madaniyati.
- 15."Informasiya"**- lotincha “information” so'zidan olingan bo'lib, "ma'lumot", "tushuntirish", "tavsiflash" degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilida informasiya so'zi axborot deb tushuniladi.
- 16."Internatsionallashtirish"** - mamlakatlararo munosabatlar, xalqaro savdoning o'sishi, demokratiya va inson huquqlari kabi g'oyalarni o'zaro almashinishidir.
- 17.Ijtimoiylashuv** – ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarning o'zlashtirish jarayoni bo'lib, bu jarayon shaxs sifatlarini shakllantiradi.
- 18.Inversion** — axborotlarni turli tamondan o'rganish, o'rnini almashtirish xususiyatiga ega bo'lib, tafakkur (fikrlash) tazimini shakllantiradi.
- 19.ICRA** – internet mazmunini baholash assotsiatsiyasi mustaqil xalqaro tashkilot bo'lib, asosiy vazifasi ota-onalarni ularning farzandlarini tarmoqda kutayotgan ko'ngilsizliklar va xavfli munosabatlar haqida ogohlantirish, kiber makonda bolalarni noto'g'ri axborotlardan himoyalash va so'z erkinligini ta'minlashdan iborat.
- 20.Jamiyat** – insonlarning barcha o'zaro harakatlari uslublari va bir – biridan har tomonlama bog'liqligi ifodalanadigan birlashmalarning yig'indisi.
- 21.Korreksiya** – to'g'irlash, yo'naltirish, tekislash, shakl berish.
- 22.Kiberterroristik saytlar** - Internetda o'ta izchil voqelik: saytlar to'satdan paydo bo'ladi va tez-tez formatini o'zgartirib turadi. Kutilmaganda esa, o'z

mundarijasini saqlagan holda, ammo manzilini o'zgartirish yo'li bilan ko'zdan g'oyib bo'ladi.

- 23. Kiberterrorizm** – Internetda ayrim shaxslar o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda agressiv maqsadda axborot xurujini uyushtirishi. Ya'ni internet jinoyatchiligi.
- 24. Kiberpatrul yoki Kidskontrol** – kompyuterga o'rnatiladigan maxsus taqiqlov dasturlari.
- 25. "Liberallashtirish"** - mamlakatlararo ochiq savdoning chegaralashning man etilishi va jahon iqtisodiyotini erkinlashtirish.
- 26. Ludomaniya** - o'yinlarga ishtiyoqmandlik.
- 27. Madaniyat** – ijtimoiy borliqni aks ettiruvchi, insoniyat yaratgan va yaratayotgan hamda jamiyat taraqqiyotida tarixan erishilgan bosqichni harakterlovchi moddiy va ma'naviy boyliklar majmui.
- 28. Save the Children** – AQShdagi bolalarni asraylik xalqaro huquqiy tashkiloti.
- 29. Telemaniya** – televizor ko'rishga haddan ortiq ruju qo'yish.
- 30. "Universallashtirish"** - bu turfa qarash va tajribalarning yer yuzidagi barcha insonlar orasida tarqalishi.
- 31. Vatanparvar xakkerlar** – Xitoy mamlakatida maxsus Internet xavfsizligini ta'minlovchi tashkilot.
- 32. "G'arblashtirish"** - g'arbiy kapitalizmning jahon miqyosida ustun turishi.
- 33. Shoppingomaniya** – xarid qilishga ruju qo'yish.
- 34. Cyberangels (kiberfarishtalar)** – internetda bolalar huquqini himoya qilishga yo'naltirilgan tashkilot.
- 35. Child Protection Agency-** Ispaniyaning Bolalarni internet hamlasidan himoya qilish agentligi.

Mundarija

KIRISH.....	3
I BOB. "AXBOROT OLISH MADANIYATI" TUSHUNCHASINI PEDAGOGIK TALQIN QISMINING NAZARIY MANBALARI	
1.1. Axborot va uni jamiyat hayotida tutgan o'рни.....	5
1.2. Bugungi globallashuv sharoitida axborotning shakllari va xususiyatlari tavsifi.....	9
II BOB. SHAXSNI AXBOROT OLISH JARAYONINIG METODIK ASOSLARI	
2.1. Shaxsni axborot tahdidlaridan himoyalashning pedagogik shart-sharoitlari	31
2.2. Shaxs ruhiyatiga axborot ta'sirining ijobiy va salbiy jihatlari tahlili.....	37
2.3. Shaxsda axborot olish madaniyatini shakllantirish usullari va vositalari.....	48
XULOSA VA TAVSIYALAR.....	69
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	71
ILOVALAR.....	75